

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI
MAGISTRATURA BO‘LIMI**

Qo‘lyozma huquqida

UDK: 63(330.3)

HASANOVA NIGORA HASAN QIZI

**QISHLOQ XO‘JALIGINI MODERNIZATSIYALASHDA
INVESTITSİYALARNING O‘RNI VA AHAMIYATI**

Mutaxassislik: 5A230101-“Iqtisodiyot”(Ijtimoiy soha bo‘yicha)

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar

i.f.n. dotsent Bababekova D.SH.

TOSHKENT-2018

Dissertatsiya Toshkent moliya instituti “Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrasida bajarilgan.

Ilmiy rahbar

i.f.n.dotsent D.SH. Bababekova

Kafedra mudiri

i.f.n.dotsent X.S. Asatullayev

Magistratura bo’limi boshlig’i

i.f.n.dotsent U.D.Ortiqov

Men Hasanova Nigora Hasan Qizi ushbu magistrlik dissertatsiya ishini mustaqil bajardim. Ko'chirmachilik holati yo'qligiga javob beraman. Ko'chirmachilikka yo'l qo'ygan holatimda magistrlik dissertatsiya ishi Yakuniy Davlat Attestatsiya Komissiyasi raisi taqdimnomasiga asosan bekor qilinishi va “Qoniqarsiz” baho qo'yilishidan xabardorman.

Hasanova N._____ “ ” _____

“Qishloq xo’jaligini modernizatsiyalashda investitsiyalarning o’rni va ahamiyati” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi

Annotatsiyasi

Tayanch so’zlar:qishloq xo’jaligi, dehqonchilik, chorvachilik, intensiv bog’lar, modernizatsiyalash, qishloq xo’jaligi texnikalari, sug’orish komplekslari, melioratsiya, investitsiya, bank kreditlari, lizing kompaniyalari, investitsiyalar holati.

Tadqiqot ob’yektlari:O’zbekiston Respublikasi Qishloq xo’jaligi vazirligi, qishloq xo’jaligi korxonalari, investitsiya kirituvchi tashkilotlar.

Ishning maqsadi:Qishloq xo’jaligini yanada rivojlantirish uchun investitsiyalarni jalb etishga doir masalalar taxlili va yechimlari, amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot metodlari: ilmiy abstraktsiyalash, induksiya va deduksiya, qiyosiy tahlil, tarkibiy taxlil.

Olingan natijalar va ularning yangiligi:O’zbekiston Respublikasida qishloq xo’jaligini modernizatsiyalash zaruriyati asoslab berildi; qishloq xo’jaligini modernizatsiyalashga jalb qilingan investitsiyalarning nazariy va xuquqiy holati asoslandi; qishloq xo’jaligini modernizatsiyalashga investitsiyalarni jalb etishda xorij tajribalariga bo’lgan ehtiyoj asoslandi; Qishloq xo’jaligini modernizatsiyalashda lizing kompaniyalari texnikalari va tijorat banklari ko’rinishidagi investitsiyalarning ahamiyati asoslandi; Qishloq xo’jalik tarmog’iga investitsiyalarni jalb etish bilan bog’liq muammolar va ularni hal etish yo’llari ishlab chiqildi; qishloq xo’jaligini modernizatsiyalashga investitsiyalarni jalb etish istiqbollari o’rganildi.

Amaliy ahamiyati: tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan respublikamizda qishloq xo’jaligini modernizatsiyalash va bu jarayonda investitsiyalarni jalb qilish tadbirlarida foydalanish mumkin.

Tadbiq etish darajasi va iqtisodiy samaradorligi:tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan xulosa va takliflar O’zbekiston Respublikasi Qishloq xo’jaligi vazirligiga qarashli qishloq xo’jaligi korxonalari, xo’jaliklar, ya’ni dehqon va fermer xo’jaliklari, agrofirma, bog’dorchilik faoliyatlarini takomillashtirish jarayonida va shu kabi sohalarda tayyorlanayotgan kadrlarning o’quv jarayonlarida foydalanish mumkin.

Qo’llanish sohasi:O’zbekiston Respublikasi qishloq xo’jalik korxonalari, oliy o’quv yurtlari.

ANNOTATION

of dissertation on the theme «The role of investment on modernize agriculture»

Key words:agriculture, farming, cattle-raising, intensive garden, modernize, agricultural technics, irrigate complex, land – reclamation, investment, credit of bank, lease company, condition of investment.

Subjects of research:The Ministry of Agriculture of the Republic of Uzbekistan, interprices of agriculture, organization of investment.

Purpose of work:For more developing the agriculture creating unraveling, practical proposal and recommendation on drawing investment .

Methods of research:scientific abstraction, induction and deduction, comparative analysis, structural analysis.

The result obtained and their novelty:Based the necessity of modernizing of the agriculture on the Republic of Uzbekistan, theoretical condition of investment to modernizing the agriculture, demand of foreign experiment, importance of technics of lease companies and credits of trade banks, problems of drawing investment and created unraveling of them, future of drawing investment.

Practical value:developed scientific proposals and practical recommendations can be used at drawing investment to modernizing the agriculture.

Degree of embed economic efficiency: developed scientific proposals and practical recommendations can be used on farms in the Repoublic of Uzbekistan to drawing investment.

Field of application:Enterprices of the agriculture of the Republic of Uzbekistan and higher educational institutions.

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB QISHLOQ XO'JALIGINI MODERNIZATSIYALASHGA INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING ILMIY - NAZARIY ASOSLARI.....	
1.1 Qishloq xo'jaligini modernizatsiyalashga investitsiyalarni jalb etishning nazariy asoslari.....	
1.2. Qishloq xo'jaligini modernizatsiyalashga investitsiya kiritishning milliy iqtisodiyotga ta'siri.....	
1.3. Qishloq xo'jaligini modernizatsiyalashga investitsiya kiritishda xorij tajribalaridan foydalanish.....	
I bobbo'yicha xulosa.....	
II BOB QISHLOQ XO'JALIGINI MODERNIZATSIYALASHGA JALB QILINGAN INVESTITSİYALARNING JORIY HOLATI.....	
2.1. Qishloq xo'jaligiga kiritilgan investitsiyalarni «Zilol» fermer xo'jaligi misolida tahlil qilish.....	
2.2. Qishloq xo'jaligini modernizatsiyalashda lizing kompaniyalari texnikalari va bank kreditlari ko'rinishidagi investitsiyalarning ahamiyati.....	
II bob bo'yicha xulosa.....	
III BOB QISHLOQ XO'JALIGINI MODERNIZATSIYALASHGA JALB QILINGAN INVESTITSİYALARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	
3.1. Qishloq xo'jalik tarmog'iga investitsiyalarni jalb etish bilan bog'liq muammolar va ularni hal etish yo'llari.....	
3.2. Qishloq xo'jaligini modernizatsiyalashga investitsiyalarni jalb etish istiqbollari.....	
III bob bo'yicha xulosa.....	
XULOSA VA TAKLIFLAR.....	
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	

KIRISH

Mavzuning asoslanishi va uning dolzarbligi. Qishloq xo'jaligi mamlakatimiz iqtisodiyotida muhim soha hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2017 yilning 4-avgust kungi qishloq xo'jaligini tubdan zamon talablariga mos ravishda modernizatsiyalash va bu jarayonda investitsiyalarni jalb etishga oid farmonini imzolash chog'ida quyidagilarni ta'kidlagan edilar:

- Qishloq xo'jaligini jadal va barqaror rivojlantirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qishloq aholisining bandligi va daromadlarini oshirish, ichki bozorda oziq-ovqat mahsulotlari narxining barqaror qiymatini saqlashga qaratilgan maqsadli, sohaviy va hududiy kompleks dasturlarni ishlab chiqish;

- Qishloq xo'jaligi sohasiga xorijiy sarmoyalar va texnik ko'mak berish (grant) mablag'larini jalb qilish, ulardan loyihaviy boshqaruv qoidalariga muvofiq samarali foydalanishni ta'minlash;

- Suv zaxiralarini boshqarish tizimi va qoidalarini takomillashtirish, ularning tejamkorlik va ratsional foydalanilishini ta'minlash, sug'oriladigan yerlar meliorativ holatini yaxshilash, suv xo'jaligi inshootlari, gidrotexnika qurilmalarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilish;

- Qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilariga xizmat ko'rsatib kelayotgan infratuzilmalar faoliyatini bozor qoidalari va mexanizmlari asosida tubdan takomillashtirish;

- Ta'lim, fan va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining tizimli asosda integratsiyasini ta'minlash, kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish kabilar.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, qishloq xo'jaligini yuksaltirishda katta ishlar amalga oshirildi.Ammo, bu soha tarmoqlarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish eng dolzarb masalalardan biridir. Bu masalaning yechimi sohaga ichki va tashqi investisiyalarni jalb qilish hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligiga yo'naltiriluvchi investitsiyalar dunyoda qashshoqlik va ochlik hajmini kamaytirishning eng samarali usullaridan biridir.

Odatda, sarmoyalar mehnat samaradorligi va qishloq xo'jaligida daromadlarning keskin ortishiga olib keladi. Bu esa o'z o'rnida boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlari va xizmatlariga bo'lgan talabni oshiradi. Aholini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan investitsiyalar ish bilan ta'minlash darajasi va daromadlarning oshishiga olib keladi. Shuning uchun bu to'g'ri va oqilona yo'ldir.

Qishloq xo'jaligiga investitsiyalar ichki va tashqi bozordagi oziq-ovqat ta'minotini yaxshilash va iste'mol narxlarini past darajada saqlab qolish imkonini beradi.

O'zbekistonning qishloq xo'jaligidagi boy salohiyati va erishayotgan yutuqlari investitsiyalarning salmoqli qismini ushbu sohaga yo'naltirishga asos yaratmoqda. Hozirgi paytda Prezidentimiz tashabbusi bilan xorijiy moliya institutlari ishtirokida ilg'or agrosanoat texnologiyalarini jalb etish, qishloq xo'jaligi infratuzilmasini rivojlantirish, irrigatsiya tarmoqlarini yangilash, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash, mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash asosida tayyor oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish borasidamilliardlab dollardan ziyod mablag'larni talab etadigan yirik loyihalar amalga oshirilmoqda.

Tadqiqot ob'yekti va predmetiRespublikamizdagi qishloq xo'jaligi korxonalarini modernizatsiyalash sharoitida investitsiyalarni jalb qilish holati, dinamikasi, istiqbollari va mavjud muammolari yechimi yuzasidan amalga oshiriladigan ishlar. Tadqiqotning predmetini qishloq xo'jaliklarini modernizatsiyalash maqsadida investitsiyalash jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar yig'indisi tashkil etadi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Mamlakatimizda aholi turmush farovonligini ta'minlash yo'lida muhim tarmoq hisoblangan qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirish uchun investitsiyalarni jalb etishga doir masalalar taxlili va yechimlarini ishlab chiqish.

Tadqiqot vazifalari:

-qishloq xo'jaligi tarmoqlarini investitsiyalashning nazariy asoslarini tadqiq qilish;

-qishloq xo'jaligini modernizatsiyalashga investitsiya kiritishda xorij tajribalaridan foydalanish

-qishloq xo'jaligini modernizatsiyalashga jalb qilingan investitsiyalar tahlili

-qishloq xo'jaligini modernizatsiyalashda lizing kompaniyalari texnikalari va bank kreditlari ko'rinishidagi investitsiyalarning ahamiyatini ochib berish

-qishloq xo'jalik tarmoqlariga investitsiyalarni jalb etish bilan bog'liq muammolar va ularni hal etish yo'llari

-qishloq xo'jaligini modernizatsiyalashga investitsiyalarni jalb etish istiqbollari

-qishloq xo'jaligi tarmoqlarini investitsiyalashning holatini baholash va rivojlanish tendensiyalarini aniqlash;

-qishloq xo'jaligi tarmoqlarini investitsiyalashni takomillashtirish borasidagi muammolarni aniqlash va ularni hal qilishga qaratilgan ilmiy takliflarni tayyorlash.

Ilmiy yangiligi qishloq xo'jaligini modernizatsiyalash tushunchasi fanda avval qo'llanilmagan, chunki faqat davlat tomonidan berilgan buyurtmani bajarish bilangina cheklanilgan. Bugungi kunda bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo'jaligi sohasi muhim soha hisoblanadi, shu bois uni jahon standartlariga moslash uchun investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha olib borilgan ishlar.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi (tahlili) ushbu tadqiqot mavzusi nazariy jihatdan yangiligi bois bu borada adabiyotlar soni unchalik ko'p bo'lmasligi mumkin, ammo davlatimiz rahbari bu to'g'rida ko'p bor takidlamogda. Jo'rayev A. «Qishloq xo'jaligidagi islohotlar», Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Agrar va suv xo'jaligi masalalari qo'mitasi raisi M. Teshaboyev, Qishloq va suv xo'jaligi vazirining o'rinbosari YA. Xidirov va

boshqalar, qishloq xo'jaligining nazariy asoslariga oid o'z fikrlarini bayon etganlar.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning sohaga oid 2017 yil 4-avgustdagi PF-5134-son "O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni, vazirlik huzurida Qishloq va suv xo'jaligida investitsiya loyihalarini amalga oshirish markazi tashkil etish, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining Moddiy-texnika bazasini rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni joriy qilish va xodimlarni rag'batlantirish jamg'armasiga aylantirish borasidagi farmonlari asos qilib olindi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari modernizatsiya qilishga investitsiyalarni jalb qilish bilan bog'liq muammolar, ularning yechimini ishlab chiqish va kelgusida qo'lga kiritilishi kutilayotgan sarmoyalar, ularning evaziga amalga oshiriladigan istiqbolli loyihalardan iborat.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati shundaki, qishloq xo'jaligini investitsiyalash samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Dissertatsiya ishining tuzilishi va hajmi. Magistrlik dissertatsiyasi tarkiban kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB. QISHLOQ XO'JALIGINI MODERNIZATSIYALASHGA INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

1.1. Qishloq xo'jaligini modernizatsiyalashda investitsiyalarni jalb etishning nazariy asoslari

Investitsiyalar har qanday iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi va uning taraqqiyotini ta'minlovchi kuch ekan, barcha imkoniyatlarimizni ishga solib iqtisodiyotimizga yo'naltiriladigan investitsiyalar hajmini oshirishimiz lozim.

Shu bois investitsiya faoliyati to'g'risida so'z yuritishdan avval bu sohaga oid ba'zi bir atamalar (investitsiya, kapital qo'yilma, xorijiy investitsiya) mohiyatini aniqlab olishimiz zarur bo'ladi.

Investitsiya — (nemischa „Investition“, lotincha „Investio“) so'zidan olingan bo'lib, asosan, ishlab chiqarishga uzoq muddatli qo'yilmalar sarfi, ya'ni xarajatlar yig'indisi deb talqin etilgan. Investitsiya — foyda (daromad) olish yoki ijtimoiy samaraga erishish maqsadida, davlat, yuridikva jismoniy shaxslar (investorlar) tomonidan cheklangan imkoniyatlardan samarali foydalanib, cheklanmagan ehtiyojlarni qondirish uchun iqtisodiyotning turli sohalariga ma'lum muddatga sarflangan barcha turdagi boyliklardir.

Investitsiya (lot. investio — o'rash) — iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida o'z mamlakatida yoki chet eldagi turlitarmoqlarga, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarga, innovatsiya, tadbirkorlik loyihalariga uzoq muddatli kapital kiritish (qo'yish). Pulning vaqt (zamon)ga bog'liq qiymati nazariyasiga ko'ra, investitsiya kelajakda naf olish maqsadida mablag'lar qo'yishdir. Investitsiya kapitalni muayyan muddatga bog'lashni yoki band qilishni bildiradi. Bundan asosiy maqsad kapital qiymatini saqlab qolish yoki bo'lmasa kapital qiymatini vaqtda o'stirib borishdir. Iqtisodiy mazmuni jihatdan investitsiya turli faoliyatlarga safarbar etilgan moddiy, nomoddiy boyliklar va ularga bo'lgan huquqlarni aks ettiradi. Investitsiya sifatida pul, qimmatli qog'ozlar (aksiya, obligatsiya, sertifikat, veksel), yer, bino, inshoot kabi boyliklar, intellektual mulk bo'lgan ilmiy kashfiyotlar, ixtirolar,

asbob-uskunalar texnikalar va boshqalar ishlatiladi. Investitsiya loyihalariga mablag‘ qo‘yuvchilar — investorlar davlat, kompaniya, korxona, chet ellik fuqarolar, aholi va boshqalar bo‘lishi mumkin.

Iqtisodiyadabiyotlardavaamaliyotda "investitsiya"
nisbatananiqvakengqo‘llanilayotganatamahisoblansa-da, ikkinchitomondan,
uningko‘pqirraliligivaziddiyatliliginafaqatmamlakatimiz,
balkixorijiyiqtisodiyadabiyotlarigahamxos."Investitsiya"
atamasiningmohiyatinianiqlashniiqtisodiyadabiyotlardakengqo‘llaniladiganta‘rifl
arnitahliletishdanboshlashmaqsadgamuvofiq."Investitsiya"
tushunchasibirqatorma‘nolargaegabo‘lib,
buqisqachaqo‘yilmadeganma‘nonibildiradi.

Yokibunifoydaolishmaqsadidaaktsiya, obligatsiyasotibolish,
tovarishlabchiqarishhuchunzarurbo‘lganrealaktivlarnisotibolishvaishlabchiqarishh
amdaintelektualvaboshqamoddiyboyliklaruchunsarflanishitushuniladi,
ya‘niinvestitsiyalarharqandayvositabo‘lib, pulningqiymatinisaqlaydi,
uningqiymatiniko‘paytiradi, va ijobiydaromadolishnita‘minlaydi.Demak,
investitsiyaso‘zikengroqma‘nonianglatib,
bungaqo‘shimcharavishdao‘zlashtirmoqdeganma‘nonihamberarekan"¹.

InvestitsiyahuquqisohasidailmiyizlanishlarolibborganrusolimiA.G.Bogatirevh
amyuqoridaginuqtainazargayaqinpozitsiyaniegallaydi.²Aynanxarajatlarningishlab
hiqarishgaxosligivauzoqmuddatliligiko‘phollardamualliflartomonidaninvestitsiyala
rvakapitalqo‘yilmalaro‘rtasidatenglikishorasiniqo‘yilishigasababbo‘ladi.

Shunita‘kidlashlozimki, Yevropachauslub "investitsiya"
atamasiniqimmatliqog‘ozlargakirtilganuzoqmuddatliqo‘yilmalarganisbatanhamqo‘l
lanilishigayo‘lqo‘yadi. Ammo
"faqatkorporatsiyaniboshqarishimkoniyatinio‘zidaaksettirganholatdaginabundayka
pitalqo‘yishinvestitsiyabo‘lishimumkin".³

¹Karimov N.G‘., Xojimatov R.X. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish" Darslik. - TDIU, 2011-B. 31

²Bogatirev A.G. Investitsionnoe pravo. M.: Rossiyskoe pravo, 2008.-272 s.

³Sharp U., Aleksander G., Beyli Dj. Investitsii: Per. angl. - M.INFRA-M, 2007. - s.28.

Investitsiya atamasito'g'risidasi'zyuritganda MDH mamlakatlari iqtisodiyadabi
yotlaridakeng qo'llaniladigan bir qatorta'riflarniko'ribchiqish maqsad gamu vofiq.
Masalan, rusiqtisodchi-olimi Kovalev V.V. – fikrigako'ra, "investitsiyalar —
xalqxo'jaligining turlitarmoqlaridagi korxonalarga uzoq muddatlik kapital qo'yishdir
(mamlakat ichida yok xorijda)"⁴. Ko'rinib turibdiki,
ushbuta'rifda investitsiyalarning maqsadivasohalari o'zaksini topmagan.
Shubilan birga ushbuta'rifda investitsiyalar uzoq muddatlik kapital qo'yilmalarga tenglas
htirilmoqda.

Investitsiyalar — asosiy va aytilgan kapitalni qaytatiklash va ko'paytirishga,
ishlabchi qarish quvvatlarini kengaytirishga qilingan sarflarning pul shaklidagi ko'rinish
idir. Upulmablag'lari, bank kreditlari,
aktsiya va boshqa qimmatli qog'ozlarko'rinishida amalga oshiriladi.

Lukinov V.A.

yuqoridagi ta'rifga nisbatan birmunchato'laroq va aniqroq ta'rifni keltiradi:

"investitsiyalar —
foйдаolish maqsadida mamlakat ichi karisida yok xorijda xalqxo'jaligining turlitarmoql
ariga davlat va xususiy kapitalining uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalaridir"⁵.

Mazkur ta'rifda investitsiyalarning maqsadiko'rsatilgan bo'lsada,
uning ijtimoiiysamaranita'minlashdagi roli ko'rsatilmagan. Shuningdek,
investitsiyalar faqat moliyaviy qo'yilmalar sifatida tavsiflangan, xolos. Vaholanki,
 mashinalar, texnologiyalar, litsenziyalar ham investitsiyalar bo'lishi mumkin⁶.

Rossiyalik iqtisodchilar A.Yu. Andrianov,

S.V.

Valdaytsev ham investitsiyalarga shungayaqinta'rif keltiradilar: "Investitsiyalar —
davlat kapitali va xususiy kapitalning foйдаolish maqsadida mamlakat
ichki karisida yok xorijiy mamlakat iqtisodiyotiga uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalarid

⁴Kovalev V.V. Metodn otsenki investitsionnix proektov.-- M.: Finansi i statistika, 2008. — 144s.

⁵Lukinov V.A. Problemn stabilizatsii i razvitiya investitsionno-stroitelg'noy sfern.-- M.: 1998. — 228s.

⁶Thijs L.J. Broekhuizen, Tom Bakker, Theo J.B.M. Postma. "Business Horizons", Implementing new business models: What challenges lie ahead?. Pages 555-566.

www.sciencedirect.com/science/article/pii/S000768131830034X , <https://doi.org/10.1016/j.bushor.2018.03.003>

ir"⁷. Ko'rinib turibdiki, ushbuta'rifdainvestitsiyalarning tarkibi keltirilmagan va bu yerda ham investitsiyalarning moliyaviy qo'yilmalar sifatida ta'riflash ustuvor bo'linga.

"Investitsiyalar foyda (daromad) olish yoki ijtimoiy xudiq tashvishlariga erishish maqsadida turlanishlab chiqarish, tijorat, ijtimoiy, ilmiy, madaniy va boshqa sohadasturlarivaloyihalarni amalga oshirishga kiritiladigan pul, mulk va intellektual boyliklarning majmuasidan iborat"⁸, - deb ta'rif beradi investitsiyalar tahlil sohasidailmiy izlanishlarolib borganrossiyalik iqtisodchi O.Sinitin.

Mazkur ta'rif garchi keng qamrovli bo'lsa-da, investitsiyalarning mohiyatini to'liq va aniqlab berolmaydi. Bunda investitsiyalar turlanishdasturlarivaloyihalarni amalga oshirish uchun sarflanadigan pul, mulk va intellektual boyliklarning majmuasidan iboratligiga ta'kidlanadi. Qimmatli qog'ozlarga qilinadigan uzoq muddatli qo'yilmalar, texnologiyalar sotib olish uchun sarflanadigan mablag'lar va boshqa muhim investitsiyalar ularni ta'biy dasturda qolgan.

Quyidagita'rifdainvestitsiyalar vakapital qo'yilmalar o'rtasiga tenglik sharoiti qo'yilgan: "Investitsiyalar (kapital qo'yilmalar) — xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida kengaytirilgan takrorishlab chiqarishni ta'minlashga yordam beradigan moddiy, mehnat va pul resurslarini xarajatlari yig'indisidan iborat"⁹.

Bizning fikrimizcha, O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyatini ta'minlash" qonunida keltirilgan ta'rif investitsiyalarning iqtisodiy-huquqiy tabiatini to'liq aniqlab beradi: "investitsiyalar — iqtisodiy va boshqa faoliyat ob'ektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy resurslar va matnlar haqida mulk va intellektual huquqlar; investitsiya faoliyati —

⁷ Investitsii: ucheb. / A.Yu. Andrianov, SV. Valdaytsev, P.V. Vorobg'ev i dr. — 2-e izd., pererab. i dop. — M.: TK Velbi, Izd-vo Prospekt, 2008. — s.58.

⁸ Sinitin O. Investitsionniy analiz. Teoriya vibora // Investitsii v Rossii. № 1-2, 2007

⁹ Shapirov.D. I.Upravlenie proektami. — SPb.: "Dva Tri", 2006. - 17 s.

investitsiya faoliyatini sub'ektlarining investitsiyalarini amalga oshirish bilan bog'liq harajatlarni majmui"¹⁰.

Ushbu ta'rif investitsiyalarning ham real ham moliyaviy turlari mazmunini qamrab oladi.

Keyingi davrda xalqaro iqtisodiy munosabatlarda investitsion hamkorlik rivoj topdi. Bunday hamkorlikning real, moliyaviy, intellektual (litsenziyalar, nou-xauni berish, hamkorlikda bajariladigan ilmiy ishlanmalar va boshqalarga mablag' sarflash) ko'rinishlari bor.

O'zbekiston Respublikasida bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida respublika iqtisodiyotida tuzilmaviy o'zgarishlarni amalga oshirishda investitsiyalardan samarali foydalanilmoqda. O'zRda 1996 yildan boshlab respublika hukumati har yili davlat byudjeti va byudjetdan tashqari fondlar mablag'lari hisobidan kapital qo'yilmalar limitlari, chet el investitsiyalari va hukumat kafolati bilan olingan kreditlar hisobiga aniq qurilishlar dasturi, shuningdek, bevosita chet el investitsiyalari va kreditlari hisobiga qurilishlar dasturidan iborat bo'lgan Davlat investitsiya dasturini qabul qiladi. Respublika iqtisodiyotiga investitsiya kiritishda davlat byudjeti mablag'lari, chet el investitsiyalari, korxonalarning o'z mablag'lari va aholi jamg'armalari qatnashmoqda. Respublikada aholining qimmatli qog'ozlarga jamoaviy investitsiyani amalga oshiradigan xususiylashtirish investitsiya fondlari (XIF) va kompaniyalari tarmog'i rivoj topdi.

Mamlakatimiz sharoitida agrar sohani rivojlantirmasdan turib, umumiqtisodiyotni ko'tarish qiyin ish. Agrar tarmoq respublikamiz iqtisodiyotining eng muhim sohalaridan biridir. Zero, hozirgi kunda respublikamizda yashaydigan 31,5 milliondan ortiq aholining 65% foizga yaqini qishloqlarda istiqomat qilib, mamlakat yalpi mahsulotining salmoqli bir qismi ushbu soha ulushiga to'g'ri keladi. Mustaqillik sharoitida iqtisodiy sohadagi,

¹⁰ 11 "O'zbekiston Respublikasi Qonuni "Investitsiya faoliyatini to'g'risida" gi. 1998 y. 24 dekabr, 2-moddasi/NORMA.

ayniqsa, agrar sohadagi tub islohotlarni amalga oshirish, mavjud muammolarni o'rganib chiqish va hal etish, ko'zlangan natija va yutuqlarga erishish, iqtisodiy hayotni yanada erkinlashtirish, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, yerlarni o'z egalariga berish, dehqon-fermer xo'jaliklarini rivojlantirish va shular asosida iqtisodiyotni taraqqiy toptirish bosh maqsadimizdir.

Iqtisodiy sohani yanada erkinlashtirish maqsadi-birinchi navbatda davlatning boshqaruv rolini chegaralash, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning iqtisodiy erkinliklarini hamda iqtisodiyotning barcha sohalarida, shu jumladan agrar sohada ham xususiy mulk miqyoslarini kengaytirish, mulkdorlarning mavqei va huquqlarini mustahkamlash demakdir.

Qishloq xo'jaligidagi tub islohotlardan maqsad aholi turmush sharoitini yaxshilash, mulkchilikning barcha shakllarini taraqqiy ettirish, tadbirkorlikni rivojlantirish, kichik va o'rta biznesni yanada shakllantirish, ishlab chiqarishni mahalliyashtirish va yangi ishchi o'rinlarini yaratish, samarali mehnat qilish, daromad olish, viloyat iqtisodiyotini yuksaltirish va mamlakat iqtisodiy taraqqiyotiga hissa qo'shishdan iboratdir.

Bugungi kunda qishloq xo'jaligida yaxshi natijalarga erishilmoqda. Yutuq bor joyda kamchiliklar ham bo'ladi, albatta. «Iqtisodiy islohotlarning o'tgan davridagi asosiy qiyinchiliklari va uning ba'zi joylarda oqsashiga-dehqonlarimiz, fermerlarimizning va ularga xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning huquqiy bilimlari yetishmasligi sabab bo'lmoqda.»¹⁰- deydi, O'zbekiston Qishloq va suv xo'jaligi vazirining birinchi o'rinbosari A.Jo'rayev.

Ma'lumki, qishloq xo'jaligiining rivojlanishi ko'p jihatdan ilm-fan yutuqlari va ilg'or tajribalarni joriy qilishga bog'lik. Shu bilan birga rahbar kadrlar va mulkdorlarning huquqiy savodxonlikdrlarining qanchalik yuqori va salmoqli ekanligiga bog'liqdir. Shularni hisobga olgan holda Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi qoshida qishloq xo'jaligining barcha sohalarini qamrab oluvchi va o'z tarkibida tajribali mutaxassislar hamda olimlarni biriktiruvchi turli yo'nalishlarda

¹Jo'rayev A. «Qishloqxo'jaligidagi islohotlar» // «Muloqot» jurnali 2004y. №2-son.4-bet.

maxsus Kengashlar tuzilgan bo'lib, har qanday kadrni qishloq xo'jaligi sohasiga dahldor bo'lgan fan yutuqlari, bilim va tajribalar asosida malakalarini oshirishlarida ko'maklashadilar.

Iqtisodiy yuksalish bo'lsagina mamlakat taraqqiy etadi, xalq to'q, ma'naviy yetuk bo'lib, buyuk kelajak sari dadil odimlayveradi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Agrar va suv xo'jaligi masalalari qo'mitasi raisi M.Teshaboyev, qishloq va suv xo'jaligi vazirining o'rinbosari YA.Xidirov va boshqalar, qishloq xo'jaligining nazariy asoslariga oid o'z fikrlarini bayon etar ekanyurtimizda paxta va g'alla kabi muhim ekinlar bilan bir qatorda, meva-sabzavotchilik, chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik va asalarichilik sohalarida ham ishlab chiqarish hajmi sezilarli darajada o'sayotgani, ichki bozorni sut, go'sht, kartoshka, sabzavot singari oziq-ovqat mahsulotlari bilan yanada ko'proq to'ldirish uchun mustahkam xomashyo bazasi yaratilganini ta'kidlaydi.

YEXHTning mamlakatimizdagi koordinatorining katta maslahatchisi Y.Rasmussen O'zbekiston qishloq xo'jaligida bosqichma-bosqich, tizimli amalga oshirilayotgan islohotlar samarasida oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish hajmi ortib, xususiy mulkchilik shakli rivojlanayotganini ta'kidlaydi.

Mamlakatimizda qishloq xo'jaligini isloh qilish, fermer xo'jaliklariga birlashtirilgan yer maydonlarini optimallashtirish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, soha tarmoqlarini texnik va texnologik jihatdan yangilash bo'yicha amalga oshirilayotgan izchil ishlar natijasida iqtisodiyotimizning agrar sektorida tarkibiy sifat o'zgarishlari yuz bermoqda. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash hamda yerning tuproq unumdorligini oshirish, sohani modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilashga qaratilgan maxsus kompleks chora-tadbirlar dasturining qabul qilinishi soha rivojida yana bir muhim omilga aylangan edi. Ayni vaqtda dunyoda ekologik muvozanat o'zgarib, tabiat musaffoligini saqlash, atrof-muhitni himoya qilish va keng miqyosda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish masalalari muhim vazifalardan bo'lib qolayotir.

Xulosa shuki, Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, mahsulot ishlab chiqarish va qayta ishlash sohalarini texnik va texnologik jihatdan yangilash, yerlarning unumdorligini oshirish, meliorativ holatini yaxshilash borasidagi ishlarni izchil davom ettirish zarurligi ko'p bor ta'kidlanadi. Bunda tabiiy va moddiy resurslarni tejovchi, ish unumdorligi yuqori zamonaviy texnika va texnologiyalarni qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga jalb etish, zamonaviy sug'orish tizimlari va energiya tejaydigan texnologiyalardan foydalanish, seleksiya ishlarini yanada takomillashtirish, qishloqqa sanoatni olib kirish hamda yangi ish o'rinlari yaratishni yanada jadallashtirish muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning saylovoldi kompaniyasi vaqtida, Oliy Majlis palatalarining 2016 yil 14 dekabrda bo'lib o'tgan qo'shma majlisidagi hamda Qoraqolpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashlarining navbatdan tashqari sessiyalaridagi ma'ruzalari, shuningdek xalq bilan o'tkazilgan ko'p sonli muloqatlari belgilab berilgan ustuvor vazifalarni ro'yobga chiqarish zarurligi hamda ushbu vazifalar qishloq xo'jaligini modernizatsiyalash va intensiv rivojlantirishga, qishloq xo'jaligida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishga, ekin maydonlarini yanada maqbullashtirishga, paxta va boshoqli don ekin maydonlarini qisqartirishga, bo'shab qolgan yerlarga kartoshka, sabzavot, yem-xashak hamda beradigan ekinlar ekishga, shuningdek intensiv bog'lar va uzumzorlar yaratishga bag'ishlanganini qayd etib o'tish lozim. Muhokamalar chog'ida O'zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Xarakatlar strategiyasida tarkibiy islohatlarni chuqurlashtirish va qishloq xo'jaligini muttasil rivojlantirib borish, mamlakatimizning oziq-ovqat xavfsizligini yanada mutahkamlash, ekologik toza mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish, agrar sektorning eksport salohiyatini ancha oshirishga doir turli chora-tadbirlar nazarda tutilgan.

2017-2021 yillarda yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish darajasini tubdan yaxshilashga, shu jumladan yerdan foydalanishning ilmiy asoslangan texnologiyalarini joriy etish va qishloq xo'jaligi ekinlarining maqbul turlarini

yetishtirishga qarashish, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga hamda unumdorligini oshirishga alohida e'tibor qaratiladi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ichki va tashqi bozorlarda realizatsiya qilish uchun samarali logistika tizimini yaratishga, shuningdek meva-sabzavot mahsulotlarini saqlash va chuqur qayta ishlash infratuzilmasini takomillashtirishga katta e'tibor qaratilishi belgilangan.

1.2. Qishloq xo'jaligini modernizatsiyalashga investitsiya kiritishning milliy iqtisodiyotga ta'siri

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 – yil 23 – dekabrda gi «O'zbekiston Respublikasining 2017 – yilgi Investitsiya dasturi to'g'risida » gi qarori asosida Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tizimida 2017 – yilning 1 – choragida 11 ta loyiha bo'yicha 15,558 mln Aqsh dollari miqdoridagi kredit mablag'larini o'zlashtirish rejalashtirilgan. Hukumat kafolati ostida amalga oshirilayotgan mazkur loyihalar bo'yicha hisobot davrida 35,598 mln Aqsh dollari (2,3 karra) miqdorida kredit mablag'lari o'zlashtirildi. Jumladan:

1. “Xorazm viloyatidagi Toshoka tizimidagi magistral sug'orish kanallarini qayta tiklash ” loyihasining umumiy qiymati 144,2 mln Aqsh dollariga teng bo'lib, 90,37 mln dollari Islom Taraqqiyot Banki krediti, qolgan qismi esa O'zbekiston hukumatining ulushidir. Hisobot davrida 2,062 mln Aqsh dollari miqdorida mablag' o'zlashtirildi.

2. “Amu – Buxoro mashina kanali tizimini qayta tiklash ” loyihasining umumiy qiymati 406,29 mln Aqsh dollariga teng bo'lib, Osiyo Taraqqiyot Banki krediti 216,75 mln dollarni, Yaponiyaning JICA fondining mablag'i 108,97 mln dollarni, O'zbekiston hukumatining ulushi esa 80,57 mln dollarni tashkil etadi. Hisobot davrida 0,67 mln Aqsh dollari miqdorida mablag' o'zlashtirildi.

3. “Janubiy Qoraqalpog'istonda suv resurslarini boshqarishni yaxshilash” loyihasining umumiy qiymati 376,714 mln Aqsh dollarini tashkil etib, shundan 115,924 mln dollari O'zbekiston hukumatining ulushi va 260,79 mln dollari Jahon Bankining qarz mablag'idir. Hisobot davrida 0,087 mln Aqsh dollari miqdorida mablag'lar o'zlashtirildi.

4. “Surxondaryo viloyatida suv resurslarini boshqarishni yaxshilash (Xazarbog’-Oqqopchig’aykanallar tizimini qayta tiklash)” loyihasining umumiy qiymati 122,72 mln Aqsh dollarini tashkil etib, shundan 33,17 mln dollari O’zbekiston hukumatining ulushi va qolgan qismi Islom Taraqqiyot bankining qarz mablag’laridir. Hisobot davrida 0,24 mln Aqsh dollari miqdorida mablag’lar o’zlashtirildi.

5. “Farg’ona vodiysida suv resurslarini boshqarish . 2- bosqich” loyihasi Idoralararo tender komissiyasining 2013 – yil 31 – dekabrda 115-sonli bayoni asosida amalga oshirilmoqda. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22 iyulidagi 3-sonli bayoni topshirig’a asosan loyihasining narxi tuproq ishlari hisobiga (263,7mln Aqsh dollaridan 219,5 mln Aqsh dollarigacha) optimallashtirildi. Hozirda loyihaning ushbu optimallashtirilgan texnik iqtisodiy asoslari Jahon banki tomonidan ko’rib chiqilmoqda va 2017 – yilning iyun oyida direktorlar kengashi tasdig’iga kiritilishi kutilmoqda.

6. “Qashqadaryo viloyatidagi “Do’stlik 1-2-3” nasos stansiyasini qurish ” loyihasining umumiy qiymati 21,23mln Aqsh dollarini tashkil etib, shundan, 14,2 mln dollari O’zbekiston hukumatining ulushi va qolgan qismi Xitoy Xalq Respublikasi hukumatining qarz mablag’idir. Loyiha bo’yicha 2017 – yilning yanvar – mart oylarida kredit mablag’larini o’zlashtirish ko’zda tutilmagan. Loyiha tasdiqlangan tarmoqli jadval asosida amalga oshirilmoqda.

7. “O’zbekiston Respublikasida meva-sabzavotchilik tarmog’ini rivojlantirish ” loyihasining umumiy qiymati 219,28 mln Aqsh dollarini tashkil etib, shundan 150,0 mln dollari Xalqaro Taraqqiyot va tiklanish banki ulushi, 34,20 mln dollari O’zbekiston hukumatining ulushi, qolgan qismi esa loyiha tashabbuskorlarining ulushidir. 2017 yil uchun jami 34,6mln Aqsh dollari miqdoridagi mablag’lar o’zlashtirilishi rejalashtirilgan bo’lib, shundan hisobot davrida jami 31,75 mln Aqsh dollari miqdoridagi mablag’lar o’zlashtirildi.

8. “O’zbekiston Respublikasida meva-sabzavotchilik tarmog’ini rivojlantirishni qo’llab-quvvatlash ” loyihasining umumiy qiymati 28,33 mln Aqsh dollari ni tashkil etib shundan 20,44 mln dollari Xalqaro qishloq xo’jaligi

taraqqiyotining jamg'armasi ulushi , 1,67 mln Aqsh dollari O'zbekiston hukumatining ulushi 5,24 mln dollaribenifitsiar lar ulushidir. Hisobot davrida jami0,788 mln Aqsh dollari miqdoridagi mablag'lar o'zlashtirildi.

9. "Qashqadaryo va Jizzax viloyatlarida sut mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlashni kengaytirish "loyihasining umumiy qiymati 39,4 mln Aqsh dollarini tashkil etib, shundan 23,8 mln Aqsh dollari Xalqaro qishloq xo'jaligi taraqqiyoti jamg'armasining ulushidir. Loyiha bo'yicha 2017 yilning yanvar-mart oylarida kredit mablag'larini o'zlashtirish ko'da tutilmagan.

10. "Qoraqalpog'iston Rewspublikasi va Xorazm viloyatida meva-sabzavotchilikni rivojlantirish "loyihasining umumiy qiymati 39,4 mln Aqsh dollarini tashkil etib, shuning 14,0 mln Aqsh dollari Jahon bankining ulushidir. Loyiha bo'yicha 2017-yilning yanvar – mart oylarida kredit mablag'larini o'zlashtirish ko'da tutilmagan.

11. "Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash " loyihasining umumiy qiymati 240,98 mln Aqsh dollarini tashkil etib, shundan 150,0 mln Aqsh dollari Osiyo Taraqqiyot bankining ulushidir.Loyiha bo'yicha 2017-yilning yanvar – mart oylarida kredit mablag'larini o'zlashtirish ko'zda tutilmagan. Loyiha tasdiqlangan tarmoqli jadval asosida amalga oshirilmoqda.

Qishloq xo'jaligi xomashyosini chuqur qayta ishlash, yetishtirilgan mahsulotlarni saqlash infratuzilmasini rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. 2016 –yili bank kreditlari va investitsiyalar evaziga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlaydigan 230 ta korxona, 77 ming 800 tonna sig'imga ega bo'lgan 114 ta yangi sovutish kamerasi tashkil etildi va modernizatsiya qilindi. Natijada mamlakatimizda meva-sabzavotlarni saqlashning umumiy quvvati 832 ming tonnaga yetkazildi. Bu esa, yil davomida narxlarning mavsumiy keskin oshib ketishiga yo'l qo'ymasdan, aholini asosiy turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlash, ushbu mahsulotlarni eksport qilishni kengaytirish, narx-navo barqarorligini saqlash imkonini bermoqda.

2016-yilda qishloq xo'jaligini isloh qilish va rivojlantirish bo'yicha dasturiy chora-tadbirlarni amalga oshirish qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotlarini o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,6 foizga oshirish imkonini berdi.

Paxta maydonlarini 30,5 ming gektarga qisqartirish va bo'shagan yerlarga ichki hamda tashqi bozorda talab yuqori bo'lgan meva-sabzavotlarni zamonaviy qishloq xo'jaligi texnologiyalarini joriy etgan holda ekish hisobidan ekin maydonlari tuzilmasi optimallashtirildi.

Natijada, qariyb 3 million tonna paxta, 8,3 million tonna bug'doy, 21 million tonnadan ziyod meva-sabzavotlar, jumladan qariyb 3 million tonna kartoshka, 11,3 million tonna meva, 2 million tonna poliz mahsulotlari, 1,7 million tonnadan ortiq uzum, 3 million tonna meva va rezavorlar yetishtirildi va yig'ib olindi.

Meva-sabzavotlarni ishlab chiqarish va ularni saqlash hajmining oshishi, mazkur mahsulotlarni saqlash uchun maxsus sovutgichlarni qurish va saqlash texnologiyasini takomillashtirishga mustahkam zamin yaratdi. Xususan, 2016-yilda jalb qilingan sarmoya evaziga 93,1 ming tonna meva-sabzavot mahsulotlarini saqlash uchun 204 yangi sovutish kamerasi tashkil etildi hamda 12,7 ming tonna mahsulotni saqlaydigan 26 sovutish kamerasi modernizatsiya qilindi.

Qishloq xo'jaligi yerlarining unumdorligini yanada oshirish maqsadida 2013-2017-yillarda sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish davlat dasturini amalga oshirish doirasida ajratilgan davlatga tegishli va shaxsiy mablag'lar hisobidan 2016-yilda uzunligi 856,3 kilometrlik kollektor, 322,6 kilometr yopiq kollektor-drenaj tarmoqlari, 233 vertikal drenaj qudug'i, 12 ta meliorativ nasos stansiyasi, 357,4 kilometr kanal, 70,8 kilometr sug'orish latok tizimi barpo etildi va rekonstruksiya qilindi.

2016-yilda chorvachilik sektori salohiyatini yanada oshirish maqsadida tijorat banklarining qiymati 464 milliard so'mdan ziyod kreditlari hisobidan qoramol boqish, parrandachilik, asalarichilik xo'jaliklarini rivojlantirish va baliq yetishtirishni ko'paytirish bo'yicha 5,2 mingta loyiha amalga oshirildi.

Natijada, 2017-yilning 1 yanvarholatigako'ra, qoramollarumumiysoniqariyb 12,2millionboshga (o'tganyilningshudavriganisbatan 104,5 foiz) yetdi. 2016-yilda,

tirik vazni 2,2 million tonna go'sht (106,8 foiz), 9,7 million tonna sut (107,5 foiz), 6,1 milliard donadan ortiq tuxum (110,6 foiz) va boshqa mahsulotlar tayyorlandi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning 2006-yil 11-yanvardagi "Meva-sabzavotchilik va uzumchilik sohasini isloh qilish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori mamlakatimizda meva-sabzavot va uzum yetishtirishni ko'paytirish, joylarda, ayniqsa, chekka hududlarda qayta ishlashga ixtisoslashgan kichik korxonalarni barpo etishda dasturilamal bo'lmoqda.

Sohaga qaratilayotgan e'tibor tufayli meva va uzum yetishtirish hajmi yildan-yilga ortmoqda. Xususan, 2012-2014-yillarda sabzavot yetishtirish 16,3 foiz, meva yetishtirish qariyb 21 foizga o'sdi. Ularning eksport hajmi ham muttasil ortib borayotir. Bugungi kunda yurtimizda yetishtirilgan meva va poliz mahsulotlari Germaniya, Hindiston, Birlashgan Arab Amirliklari, AQSh, Janubiy Koreya, Turkiya hamda MDH mamlakatlariga eksport qilinmoqda.

sabzavotchilikka 7,4 milliard so'm, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash va boshqa yo'nalishdagi loyihalariga 36,4 milliard so'm kredit mablag'lari yo'naltirildi.

Tijorat banklari tomonidan qishloq xo'jaligi tarmog'ini kreditlashning xuquqiy asoslari:

- O'zbekiston Respublikasi "Markaziy banki to'g'risida"gi Qonun. T. "O'zbekiston". 1995.

- O'zbekiston Respublikasi "Banklar va bank faoliyati haqida"gi Qonuni. T. "O'zbekiston" 1996.

- O'zbekiston Respublikasining "Mikromoliyalash to'g'risidagi" qonuni

- "Kichik tadbirkorlik subyektlarni milliy valutada kreditlash tartibi to'g'risida" gi nizom (Adliya vazirligi 27-dekabr, 2013-yilda 2546-son bn ro'yhatga olingan, Markaziy bank 23-noyabr, 2013, 22/9 son

- O'zbekiston Respublikasi Adliyavazirligida 2007 yil 14 aprelda 1675-son bilan ro'yxatga olingan va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank Boshqaruvi tomonidan 2007 yil 13 martda 288-V-son bilan tasdiqlangan "Qishloq xo'jaligi korxonalarining davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan paxta va g'alla

yetishtirish xarajatlarini tijorat banklari tomonidan kreditlash tartibi to'g'risida"gi Nizom (yangi taxrirda)

Banklarning kredit salohiyatini oshirish hamda ularning bunda qo'llab-quvvatlash maqsadi dasturlarini ishlab chiqilmoqda. Xususan, bank tizimini isloh qilish 2010 yil 26 noyabrda PQ-1438-sonli Qarori bilan tasdiqlangan «2011-2015 yillarda respublikamoliya-

bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqoridagi qaror e'ytirilgan o'rsatki chiklariga erishishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha kompleks chora-tadbirlar» Dasturi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining respublikamoliya-

bank tizimining rivojlantirishga oid boshqa qarorlarida belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda amalga oshirildi.

Bunda asosiy e'tibor:

- tijorat banklarining kapitallashuv va resurs bazasini yanada oshirish, mazkur sohaga xususiy kapitalni keng jalb etish, aktivlar sifatini yaxshilash hamda banklarning moliyaviy barqarorligi va likvidligini yanada mustahkamlash;

- respublika tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va bank nazorati tizimini bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasining yangi (Bazel III) talablari asosida takomillashtirish ishlarini davom ettirish;

- iqtisodiyotning real sektorini moliyaviy qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilayotgan bank kreditlari hajmlarini yanada ko'paytirish, tijorat banklarining investitsion faolligini kuchaytirish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, aholi bandligini oshirish, birinchi navbatda, yoshlar va ayollar bandligini oshirishga qaratilgan biznes loyihalarni moliyalashtirishga kreditlar ajratish hajmini kengaytirish;

- bank sohasida qo'shimcha imtiyoz va preferensiyalar joriy qilish hisobiga tadbirkorlik sub'ektlariga bank xizmatlarini ko'rsatish borasida eng qulay shart-sharoitlarni yaratish;

- mamlakat bank tizimi va tijorat banklari faoliyatining etakchi xalqaro reyting tashkilotlari yuqori reyting baholariga erishilishini ta'minlash va muntazam ravishda yangilab borish;

- xalqaro andozalar va tamoyillar hamda mamlakatimizda bozor munosabatlari rivojlanishining hozirgi holatidan kelib chiqqan holda moliya-bank sohasining qonunchilik bazasini yanada takomillashtirish bo'yicha vazifalarning sifatli ijro etilishini ta'minlashga qaratildi.

Hozirgi kunda qishloq xo'jaligi banklari resurslarini hisobidan kiritadagi, ya'ni tijorat va imtiyozlik kreditlarini ajratmoqda.

Tijorat banklarining kreditlari esa, qishloq xo'jaligi korxonalarining faoliyatini moliyalashtirishning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Tijorat

banklarining kreditlari hisobidan xo'jalik yurituvchi subyektlarning joriy va investitsion xarajatlari moliyalashtiriladi. Agar qisqa muddatli bank kreditlari hisobidan xo'jalik yurituvchi subyektlarning joriy xarajatlari kreditlansa, bankning o'rta va uzoq muddatli kreditlari hisobidan ularning investitsion xarajatlari moliyashtiriladi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan biri Qishloq xo'jaligi nima derga nazariyasi va rivojlanishini o'z ichiga olgan bank moliyasohasining o'ziga xos qonunlarini o'z ichiga oladi:

- qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi fermer xo'jaliklariga kredit berish va kompleks tarzda bank xizmatlari ko'rsatish

- qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari, barcha mulkchilik shaklidagi korxonalar, shu jumladan, paxta va g'alla mahsulotlarini qayta ishlash, saqlash, tashish va sotishga ixtisoslashgan paxta tozalash va donni qayta ishlash sanoati korxonalariga kredit berish va moliyalashtirish mexanizmlarini izchil takomillashtirib borish;

- yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga, agrosanoat kompleksi tarmoqlarida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilashga, zamonaviy chet el texnologiyalari va uskunalarini jalb etishga yo'naltirilgan faol investitsiya siyosatini amalga oshirish, shu asosda yuqori sifatli, ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlash, ichki iste'mol bozorini mahalliy oziq-ovqat tovarlari bilan barqaror to'ldirish;

- xalqaro moliya institutlari va etakchi xorijiy banklarning imtiyozli kreditlari, investitsiyalari va grantlarini jalb etib, keyinchalik qishloq xo'jalik ishlab chiqaruvchilari va respublika iqtisodiyoti agrosanoat sektori korxonalarini ana shu mablag'lar hisobiga qayta moliyalashtirish;

- tabiiy va moddiy resurslarni tejovchi, ish unumdorligi yuqori zamonaviy texnika va texnologiyalarni qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga jalb etish, zamonaviy sug'orish tizimlari va energiya tejaydigan texnologiyalardan foydalanish, seleksiya ishlarini yanada takomillashtirish, qishloqqa sanoatni olib kirish hamda yangi ish o'rinlari yaratishni yanada jadallashtirish;

- qishloq xo'jaligini modernizatsiyalash va intensiv rivojlantirishga, qishloq xo'jaligida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishga, ekin maydonlarini yanada maqbullashtirishga, paxta va boshqali don ekin maydonlarini qisqartirishga, bo'shab qolgan yerlarga kartoshka, sabzavot, yem-xashak beradigan ekinlar ekishga, shuningdek intensiv bog'lar va uzumzorlar yaratishga moddiy sharoitlar yaratish va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Xarakatlar strategiyasida ham tarkibiy islohatlarni chuqurlashtirish va qishloq xo'jaligini muttasil rivojlantirib borish, mamlakatimizning oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish, agrar sektorning eksport salohiyatini yanada oshirishga doir turli chora-tadbirlar nazarda tutilgan.

Qishloqtaraqqiyotivafarovonliginitala'minlashmaqsadidaqishloqlardayangiisho'rinlariyaratish, infratuzilmalarnirivojlantirishgaalohidae'tiborqaratilmoqda. Qishloq taraqqiyotini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlaridan biri joylarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishdir. Yangi korxonani ishga tushirish uchun esa boshlang'ich mablag' zarur. Ana shunday ehtiyoj aholining bank xizmatlariga bo'lgan talabini oshirmoqda.

Tadbirkorlik va fermer xo'jaliklarining izchil rivojlanishida ularni moliyaviy resurslar bilan ta'minlash banklar oldida turgan ustuvor vazifalardandir. Banklar mablag'larni aholi uchun zarur iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqaradigan ixcham minitexnologiyalarni xarid qilish, yangi ish o'rinlari yaratish hamda mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirmoqda. Agrar sektorni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, xususan qishloqlarimiz qiyofasini o'zgartirish, qishloq aholisini ish bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki ma'lumotlariga ko'ra, 2013 yilning o'tgan 11 oyida vomi da banklar tomonidan tadbirkorlik subyektlari, shujumladan fermer xo'jaliklariga ajratilgan kreditlari miqdori o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,3 barobarga oshib, 6 trln. 532 mlrd. so'mni tashkil qildi. Xususan, bu yil g'alla

yetishtirish uchun 485 mlrd.so'm, paxta hosili uchun 1,5 trln. so'm qiymatida imtiyozli kreditlar yo'naltirildi. Banklar tomonidan fermer xo'jaliklariga kredit va lizing xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq masalalar O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki tomonidan tashkil etilgan matbuot anjumanining bosh mavzusi bo'ldi.Unda ta'kidlanganidek, bugungi kunda mamlakatimizda fermerlik harakati nafaqat mahsulot yetishtirish, balki joylarda ijtimoiy masalalarni hal etish, iqtisodiy muhitni yaxshilashda katta kuchga aylanib bormoqda. Xususan, aholini ish bilan ta'minlash, iste'mol bozorini sifatli qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan to'ldirishda fermerlarning tutgan o'rnini hisobga olgan holda respublika hukumati tomonidan ularga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Yerning haqiqiy egasiga aylangan fermer va dehqonlarga qator imtiyozlar berilib, me'yoriy-huquqiy baza takomillashtirilmoqda. Jumladan, shu yilning 11 oyi davomida tijorat banklari tomonidan qishloq joylarida chorvachilikni rivojlantirish uchun 224,5 mlrd. so'm, baliqchilik va asalarichilikka 22,4 mlrd. so'm, meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlaydigan mini texnologiyalar va asbob-uskunalar xarid qilishga 60,3 mlrd. so'm ajratildi. “Keyingi 10 yil davomida fermer xo'jaligimiz hosildorlikni oshirib, urug'chilik xo'jaligiga aylantirildi.Ishimizni yanada rivojlantirish maqsadida “Agrobank” OATB dan imtiyozli kreditlar olganmiz. Bank kreditlarni o'z vaqtida yetkazib berganligi bois, agrotexnik tadbirlarni ham kechiktirmasdan amalga oshirdik”, - deydi fermer Yo'ldosh Qodirov. Unga ko'ra, bugungi kunda banklar fermer xo'jaliklariga eng kam ish haqining 1000 barobari miqdorida mikrokreditlar ajratmoqda. Tijorat banklarining Imtiyozli kreditlash jamg'armasi resurslarining doimiy o'sib borishi natijasida uzoq va borish qiyin bo'lgan tumanlardagi dehqon va fermer xo'jaliklariga 5 yil muddatgacha yillik 6 % bilan eng kam ish xaqining 2 000 barobari miqdorida kreditlar berish amaliyoti yo'lga qo'yildi.“Bugungi kunda banklar tomonidan mijozlarga kredit berish jarayonida talab qilinadigan hujjatlar soddalashtirilmoqda va asosiy e'tibor uzoq muddatli kreditlarni ajratishga qaratilmoqda. Ayni paytda qishloq hududlarida 2160 ta mini-bank faoliyat ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, bozor munosabatlarining kengayishi bilan fermer xo'jaliklariga qishloq xo'jalik texnikasi va uskunalarini lizingga berish mexanizmi

ham takomillashtirildi. Ma'lumotlarga ko'ra, hozirda banklarning kredit portfelida lizing operatsiyalari qoldig'i 41 mlrd.so'mdan oshgan.

2017-yilning 10-iyulida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "Qishloq xo'jaligi texnikasi sohasidagi ilmiy-texnik bazani yanada mustahkamlash choralari to'g'risida"gi qarorni imzoladi. Hujjat matni davlat rahbari saytida joylashtirilgan. «O'zagrotexsanoatxolding» AJ tuzilmasida mavjud bo'lgan «Agrosanoat mashin Jiniring» MChJ «Qishloq xo'jaligi mashinasozligi muhandislik-texnologik markazi» (Markaz) etib o'zgartirildi. Markaz zamonaviy qishloq xo'jaligi texnikasining yangi turlarini ishlab chiqish, ishlab chiqarish va yangi mashinalar hamda qurilmalarning tajribaviy namunalarini ishlab chiqarish uchun texnologik uskunalarni tayyorlash, qishloq xo'jaligi texnikasining yangi tajribaviy namunalarini zamonaviy texnologiyalar va asbob-uskunalaridan foydalangan holda tayyorlash, ularni ishlab chiqarishga tatbiq etish bilan shug'ullanadi. Unga «SKB - «Traktor» va «KB-O'zagrotex» MChJ qo'shiladi. Ularning intellektual mulk ob'yektlariga bo'lgan huquqlari, ilmiy-konstruktorlik ishlanmalari va boshqa texnik hujjatlari, shuningdek, ilmiy-texnik loyihalar va ularni amalga oshirish uchun imzolangan shartnomalar ham markazga o'tkaziladi. Ushbu tashkilot 2020 yilning 1 yanvariga qadar mulk solig'i, qo'shimcha qiymat solig'i va Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasi hamda Moliya vazirligi qoshidagi ta'lim hamda tibbiy muassasalar moddiy-texnik bazasini rivojlantirish byudjetdan tashqari Jamg'armasiga majburiy to'lovlardan ozod etildi.

Lizingga qishloq xo'jaligi texnikalari O'zbekiston Milliy matbuot markazida qishloq xo'jaligi modernizatsiyalash jarayonlarida lizing xizmatlarining o'rni va ahamiyati

gabag'ishlangan anjuman bo'lib o'tdi. "O'zqishloq xo'jalik mashlizing" aksiyadorlik lizing kompaniyasi bilan hamkorlikda tashkil etilgan tadbirda yurtimizda so'nggi o'n yildan ortiq vaqt davomida yalpi ichki mahsulotning o'sish hajmi sakkiz foizdan ortiq bo'layotgani, bunda fermer xo'jaliklarining alohida o'rni mavjudligi hamda ularning yuqori samarali zamonaviy qishloq xo'jalik texnikalari bilan ta'minlangani alohida ta'kidlandi. Mamlakatimizda lizing xizmatining rivojlanishi uchun mustahkam huquqiy asos va keng imtiyozlar yaratilgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000yil 2noyabrdagi «Qishloqni lizing shartlarida qishloq xo'jaligi texnikasi bilan ta'minlash choratadbirlari to'g'risida»gi qaroriga muvofiq, fermer xo'jaliklari uchun "O'zqishloq xo'jalik mashlizing" kompaniyasi xizmatidan foydalanishda qator imtiyozli lizing shartlari belgilangan. Texnikani lizingga olishda fermer xo'jaliklari, mashinatraktor parklari hamda hududiy "Qishloq xo'jalik kimyo" aksiyadorlik jamiyatlari uchun qator imtiyozlar yaratilgan. Lizing muddatining 7yildan 10yilgacha ekani, texnika qiymatining 15 foizi oldindan to'lanishi va lizing daromadi yillik foizining bank moliyalashtirish stavkasi ellik foizdan oshmasligi shular jumlasidandir. Bu kompaniyaning mamlakatimiz qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini modernizatsiyalash jarayonlaridagi ishtirokini yanada kuchaytirish imkonini berdi. Kompaniya o'z faoliyati mobaynida qishloq xo'jalik korxonalariga 1 trillion 733 milliard 300 million so'mdan ortiq qiymatdagi 60 turdagi qishloq xo'jalik texnikalarini lizing asosida yetkazib berdi. Joriy yilning o'n bir oyi davomida muassasa tomonidan 3 ming 110 dona texnika uchun 199,5 milliard so'mlik lizing xizmati ko'rsatildi. Bunda asosiy e'tibor haydov traktorlari, makkajo'xori va xashak o'rish kombaynlari hamda paxta terish mashinalarini yetkazib berishga qaratildi. Barcha lizing xizmatlarining konsalting xizmatlari bilan uyg'unlikda olib borilishini ta'minlashga erishilmoqda. Kompaniyaning lizing portfelini shakllantirishda tijorat banklaridan jalb qilinayotgan resurslar salmoqli o'rin egallayotganligi, bu borada "Asakabank", "Agrobank", Xalq banki bilan yaqindan hamkorlik o'rnatilganligi alohida qayd etish lozim.

III BOB. QISHLOQ XO'JALIGINI MODERNIZATSIYALASHGA JALB QILINGAN INVESTITSİYALARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

3.1. Qishloq xo'jalik tarmoqlariga investitsiyalarni jalb etish bilan bog'liq muammolar va ularni hal etish yo'llari

O'zbekiston Respublikasi Prezident Shavkat Mirziyoev qishloq xo'jaligi, uni modernizatsiya qilish va bunga ajratilayotgan sarmoyalarga oid ayrim xato va kamchiliklarni sanab o'tgan xolda Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining yangi vazifalarini belgilab berdi. Prezident tomonidan 2017 yil 4 avgustda imzolangan farmonda shu haqda so'z boradi. Hujjat Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi faoliyatini tubdan takomillashtirishni ko'zda tutadi.

Prezidentning PF-5134 farmonida qayd etilishicha, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining etarli darajada ishlamayotgani tufayli qishloq va suv xo'jaligi boshqaruvida qator hal etilmagan muammolar saqlanib qolmoqda. Bu esa sohani jadal rivojlantirishni ta'minlash va samaradorligiga salbiy ta'sir etmoqda.

Qishloq xo'jaligini boshqarishning mavjud tizimi agrar sohada qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida samaradorlikni oshirish va bozor munosabatlarini joriy etishga qaratilgan tuzilmaviy o'zgarishlar borasidagi zamonaviy talablarga javob bermaydi.

Zamonaviy zaxira va suv tejamkor agrotexnologiyalarni joriy qilish, sohani modernizatsiya va texnik ta'minlashga etarli e'tibor berilmayapti. Ta'lim, fan va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining integratsiyasi, agrar sohada innovatsion ilmiy ishlanmalarni joriy qilish past darajada saqlanib qolmoqda.

Suv xo'jaligini boshqarish tizimida kamchiliklar mavjud. Suv zaxiralaridan samarali va ratsional foydalanish zarur darajada ta'minlanmayabdi.

Agrar soha infratuzilmalar tizimi etarli rivojlanmagan, xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarning fermer xo'jaliklari bilan o'zaro hamkorlik mexanizmlarining past samaradorligi qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarning huquq va qonuniy manfaatlarining buzilishi, past sifat va ko'rsatilayotgan xizmatlarning yuqori tariflariga olib kelmoqda.

Shu munosabat bilan Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining vazifalari va yo'nalishlari sifatida quyidagilar belgilangan.

-Sohani kompleks modernizatsiya qilishga qaratilgan yagona agrotexnik va suv xo'jaligi siyosatini yuritish, fan-texnika yutuqlari, zamonaviy zaxira, suv tejankor agrotexnologiyalar, qishloq va suv xo'jaligi sohasida ilg'or mahalliy va xorijiy tajribani joriy qilish;

-Qishloq xo'jaligini jadal va barqaror rivojlantirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qishloq aholisining bandligi va daromadlarini oshirish, ichki bozorda oziq-ovqat mahsulotlari narxining barqaror qiymatini saqlashga qaratilgan maqsadli, sohaviy va hududiy kompleks dasturlarni ishlab chiqish;

-Qishloq xo'jaligi sohasiga xorijiy sarmoyalar va texnik ko'mak berish (grant) mablag'larini jalb qilish, ulardan loyihaviy boshqaruv qoidalariga muvofiq samarali foydalanishni ta'minlash; Suv zaxiralarini boshqarish tizimi va qoidalarini takomillashtirish, ularning tejankorlik va ratsional foydalanilishini ta'minlash, sug'oriladigan erlar meliorativ holatini yaxshilash, suv xo'jaligi inshootlari, gidrotexnika qurilmalarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilish;

-Qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilariga xizmat ko'rsatib kelayotgan infratuzilmalar faoliyatini bozor qoidalari va mexanizmlari asosida tubdan takomillashtirish;

-Ta'lim, fan va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining tizimli asosda integratsiyasini ta'minlash, kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish kabilar belgilangan.

Bunda vazirlikka yuklatilayotgan vazifalar va faoliyat yo'nalishlarini sifatli va to'liq ta'minlash yuzasidan Bosh vazir o'rinbosari, qishloq va suv xo'jaligi vaziri Z.Mirzaevga shaxsiy mas'uliyat yuklanishi ta'kidlanadi.

Bundan tashqari, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi turli sohaviy kengashlarga barham berish ham belgilangan.

Shu bilan birga, vazirlik huzurida Qishloq va suv xo'jaligida investitsiya loyihalarini amalga oshirish Markazi tashkil etish taklifi ma'qullangan.

Quyisirdaryo, Quyamudaryo va Zarafshon havzalari irrigatsiya tizimlari negizida Quyisirdaryo, Sirdaryo-Zarafshon, Quyamudaryo, Amudaryo so'l sohili, Zarafshon, Quyizarafshon havzalari irrigatsiya tizimlari boshqarmalarini barpo etish bilan qayta tashkil etish nazarda tutilgan.

Farmon bilan O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining ijtimoiy rivojlantirish va rag'batlantirish Fondini O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi moddiy-texnik bazasini rivojlantirish va innovatsion texnologiyalarni joriy qilish, vazirlik xodimlarini rag'batlantirish Fondiga aylantirish belgilangan.

Respublikamizda qishloq xo'jaligini investitsiyalash amaliyotini takomillashtirish borasida mavjud muammolardan asosiylari, quyidagilardan iborat:

1. Mamlakatimiz qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini mineral o'g'itlar bilan ta'minlash tizimini investitsiyalash hajmi va sifatini oshirish muammosi.

Ma'lumki, mineral o'g'itlar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligini ta'minlashning zaruriy omili hisoblanadi. Lekin respublikamizda kaliyli va fosforli o'g'itlar ishlab chiqarish ularga bo'lgan talabning atigi 3 foizini qondiradi. Shuning uchun mazkur o'g'it turlarini deyarli to'liq import qilayotirmiz. Bu esa, import hajmining oshishiga xizmat qilmoqda.

2. Tijorat banklari tomonidan qishloq xo'jaliklariga berilgan lizing kreditlari samaradorligiga salbiy ta'sir etuvchi muammolarning mavjudligi.

Ushbu muammolar tarkibiga asosan ikki muammo kiradi. Birinchi muammoning mohiyati shundaki, tijorat banki lizing ob'ektini qabul qilib olish dalolatnomasi imzolanganidan so'ng lizing kreditiga foiz hisoblashni boshlash huquqiga ega. Ammo, ayrim ma'suliyatsiz sotuvchilar tufayli lizing ob'ektini etkazib berish kechiktirilmoqda. Buning natijasida tijorat banklari lizing kreditlarining daromadliligi pasaymoqda.

Lizing asosida qishloq xo'jaliklari faoliyatini moliyalashtirish lizing bitimida ishtirok etuvchi barcha tomonlarning manfaatlariga to'liq mos kelishi lozim. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, lizing operatsiyasi lizing bitimida ishtirok etadigan uchala tomonning iqtisodiy va moliyaviy imkoniyatlarining oshishiga xizmat qilishi lozim:

- lizing kompaniyasi yoki lizing krediti bergan tijorat banki lizing to'lovlarini o'z vaqtida va to'liq olishi lozim. Buning natijasida, birinchidan, ular uzoq muddat mobaynida barqaror foizli daromad olish imkoniyatiga ega bo'ladilar; ikkinchidan, lizing ob'ektiga hisoblangan amortizatsiya ajratmasini o'z vaqtida to'planishi tijorat bankiga yoki lizing kompaniyasiga yangi lizing ob'ektini sotib olish imkonini beradi;

- lizingga oluvchi qishloq xo'jaligi o'z aylanma mablag'lari etishmasligi sharoitida investitsion xarajatlarini lizing krediti hisobiga moliyalashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi;

- lizing ob'ektini sotuvchi ishlab chiqargan mahsulotini to'la qiymatda sotish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Yuqorida e'tirof etilgan iqtisodiy manfaatlar mushtarakligini ta'minlash uchun lizing kreditlaridan samarali foydalanish zaruriy shartga aylanadi. Agar lizing kreditini qaytarishda muammolar yuzaga kelsa, u holda lizing bitimida ishtirok etuvchi har uchala tomonning iqtisodiy manfaatlariga putur etadi. Ya'ni, birinchidan, lizing kreditining o'z vaqtida qaytmasligi tijorat bankining likvidliligiga va moliyaviy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa, o'z navbatida, lizing ob'ektini sotuvchining xo'jalik faoliyatiga ham salbiy ta'sir etadi. Chunki, tijorat banki lizing ob'ektini avvalgi hajmda sotib ololmaydi. Ikkinchidan, lizing kreditini o'z vaqtida qaytmasligi lizingga oluvchining moliyaviy holatiga jiddiy ziyon etkazadi.

3. Tijorat banklari va lizing kompaniyalari tomonidan mamlakatimiz hududida faoliyat ko'rsatadigan qishloq xo'jaliklariga berilgan lizing kreditlari foiz stavkalarining yuqori ekanligi. Bu esa, inflyatsiya darajasiga, hukumat qimmatli qog'ozlarining auksion daromadlilik darajasiga va tijorat banklari kreditlarining

o'rtacha foiz stavkasiga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo'lgan foiz stavkasi bo'lib, qishloq xo'jaliklari faoliyatini lizing asosida moliyalashtirish hajmini oshirishga to'sqinlik qiladi.

4. O'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida jahon moliyaviy iqtisodiy-inqirozi munosabati bilan qishloq xo'jaliklari pul oqimining zaiflashuvi kuzatilmoqda. Buning asosiy sababi shundaki, qishloq xo'jaliklari tomonidan sotilgan tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha to'lovlarni o'z vaqtida undirish kechikmoqda. Buning natijasida ular lizing to'lovlarini o'z vaqtida amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lmay qolmoqda. Oqibatda tijorat banklari va lizing kompaniyalari qishloq xo'jaliklari faoliyatini lizing asosida moliyalashtirish operatsiyalarini risk darajasi yuqori bo'lgan operatsiyalar sifatida baholashmoqda.

5. Hozirgi vaqtda qishloq xo'jaligida faol investitsiya siyosatini olib borishda kadrlar bilan ta'minlash masalasi investitsiyalarni jalb etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Investitsion prognozlar va dasturlar, biznes rejalar ishlab chiqish va baholash, inqiroz sharoitida investorlar topish, raqobat, inflyatsiya, bozor konyunkturasining nomotadil sharoitlarida loyihalarni boshqarish uchun yangi bilim va tajribalar talab qilinadi. Bunda kadrlarning bilimi, malakasi, saviyasi etarli bo'lmagan mutaxassislar hisobiga shakllanganligi investitsiya biznesi rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Investitsiya siyosatida malakali kadrlar bilan ta'minlash borasida quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- ✓ iqtisodiy, texnik va qurilish xo'jaligilari bo'yicha oliy ta'lim muassasalarida investitsiya – innovatsiya faoliyatlari bo'yicha mutaxassislar tayyorlashni kengaytirish;

- ✓ investitsiya loyixalari va dasturlari bo'yicha buyurtmachilar, rahbarlar va menedjrlarni maqsadli tayyorlash;

- ✓ qishloq xo'jaligidagi investitsiya loyixalari bo'yicha sheriklar topish va biznes rejalarini to'ldirish maqsadida etakchi mahalliy va xorijiy korxonalarda xo'jalik rahbarlarining malakalarini oshirish;

- ✓ investitsiya biznesi uslubiyoti va amaliyoti masalalari bo'yicha Internetdan foydalangan holda masofaviy o'qishlarni tashkillashtirish.

Respublika mintaqalarida qishloq xo'jaligiga kirib keladigan investitsiyalar ko'lamini kengaytirish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim:

✓ Amaldagi soliq tizimini takomillashtirish orqali ishlab chiqarishni rag'batlantirish va soliq qonunchiligini soddalashtirish, er solig'ini qishloq xo'jaligida urning sifati yomonlashganda, ya'ni bonitet balli pasayganda soliq stavkasini ham mos ravishda kamaytirish kerak. Jismoniy shaxslar daromadidan to'lanadigan soliqni ikki bosqichli tarzda amalga oshirish tavsiya qilinadi

✓ inovatsion fondlar, banklar barcha sub'ektlarni birlashtiruvchi innovatsion markazni yaratish lozim.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda shuni ta'kidlash lozimki, mamlakatimiz iqtisodiyoti qishloq tarmog'ining jadal va samarali rivojlanishida ham ichki, ham tashqi investitsiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun mamlakatimizda xorijiy investitsiyalar uchun yaratilgan investitsiya muhiti amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatning xal qiluvchi muhim omillaridan biriga aylanib qoldi. Investitsiyalarsiz moliyaviy inqiroz davrida iqtisodiy qiyinchiliklarni tezda hal qilish hamda inqiroz oqibatlarini bartaraf etish, iqtisodiy o'sishga erishish, ijtimoiy samaraning o'sishini va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash imkoni mavjud emas.

6. Mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlarida asosiy kapitalga qilingan investitsiyalarning taqsimlanishida nomuvofiqliklarning mavjudligi.

7. Tijorat banklari va lizing kompaniyalarining qishloq xo'jaliklariga beriladigan lizing kreditlari hajmini oshirishga to'sqinlik qilayotgan muammolarning mavjudligi.

Ushbu muammolar majmuiga quyidagilar kiradi:

a) respublikamiz tijorat banklari depozit bazasining etarli emasligi.

b) respublikamiz tijorat banklarida uzoq muddatli resurslarning etishmasligi muammosining mavjudligi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 4-avgustdagi PF-5134-son "O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonni imzoladi.

Xulosa shuki, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining yangilangan vazifalari va ishining asosiy yo'nalishlari belgilandi. Bundan tashqari, vazirlik tizimida qator o'zgarishlar amalga oshirildi.

Birinchidan, avval Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi markaziy apparati tuzilmasida tashkil etilgan qishloq xo'jaligi tarmoqlari muammolarini hal qilish bo'yicha kengashlar tugatildi.

Ikkinchidan, vazirlik huzurida Qishloq va suv xo'jaligida investitsiya loyihalarini amalga oshirish markazi tashkil etildi.

U qarz bitimlari va Prezidentning tegishli qarorlari bilan nazarda tutilgan xodimlar sonini hisobga olgan holda tegishli investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo'yicha guruhlar negizida tashkil etiladi. Uning vazifalari:

- chet el investitsiyalari, imtiyozli kreditlar va texnik ko'maklashish vositalarini jalb etishda ishtirok etish, loyiha boshqaruvi tamoyillariga muvofiq investitsiya loyihalarini o'z vaqtida va samarali amalga oshirishni tahminlash;

- belgilangan tartibda o'z vaqtida tender (tanlov) savdolari o'tkazilishini, kontraktlar tuzilishini, ularning vakolatli organlarda ekspertizadan o'tkazilishini tahminlash;

- milliy qonunchilik, xalqaro qoidalar va tegishli xalqaro moliya institutlari va chet el hukumati moliya tashkilotlarining tartib-taomillariga muvofiq tuzilgan kontraktlar bo'yicha asbob-uskunalar, materiallar yetkazib berilishi va ishlar va xizmatlar bajarilishi monitoringini yuritish.

Uchinchidan, Quyi Sirdaryo, Quyi Amudaryo va Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari negizida Quyi Sirdaryo, Sirdaryo-Zarafshon, Quyi Amudaryo, Amudaryo so'l sohili, Zarafshon va Quyi Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalaribaro etilmoqda. Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari qoshida tumanlar irrigatsiya bo'limlari tashkil etilayotir. Ularga tumanlar ahamiyatidagi irrigatsiya ob'ektlarining bir qismi irrigatsiya tizimlari boshqarmalarining tegishli shtat birliklari bilan birga o'tadi.

To'rtinchidan, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi markaziy apparati, hududiy bo'linmalari va tizim organlari o'rtasida boshqaruv, ishlab chiqarish va yordamchi xodimlarni qayta taqsimlash amalga oshirildi.

Beshinchidan, lavozimni egallashning quyidagi tartibi o'rnatildi:

- viloyatlar hokimlarining qishloq va suv xo'jaligi bo'yicha o'rinbosarlari – viloyatlar qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasi boshliqlari;
- tumanlar (Quvasoy sh.) qishloq va suv xo'jaligi bo'limlari boshliqlari, tumanlar (Quvasoy sh.) hokimlari o'rinbosarlari;
- Quyi Amudaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi boshlig'i – Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vaziri o'rinbosari;
- irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi boshliqlari – viloyatlar qishloq va suv xo'jaligi boshqarmalari boshliqlari;
- irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari qoshidagi bo'limlar boshliqlari – tumanlar qishloq va suv xo'jaligi bo'limlari boshliqlari hisoblanadi.

Oltinchidan, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining Ijtimoiy rivojlantirish va rag'batlantirish jamg'armasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining Moddiy-texnika bazasini rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni joriy qilish va xodimlarni rag'batlantirish jamg'armasiga aylantirildi. Jamg'arma mablag'larining shakllanish manbalari:

- vazirlik tarkibiga kiradigan tashkilotlarning shartnoma asosida ajratmalari;
- fermer xo'jaliklari va boshqa tashkilotlarning ularga qishloq va suv xo'jaligi sohasida ilm-fan, texnika va ilmiy asoslangan resurstejaydigan texnologiyalarni targ'ib qilish va joriy etish bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun ixtiyoriy ajratmalari;
- urug'chilik subhektlariga ajratiladigan maxsus ustamalar;
- jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari;
- xalqaro grantlar, texnik ko'maklashish vositalari, shuningdek qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar.

3.2. Qishloq xo'jalik tarmoqlariga investitsiyalarni jalb etish istiqbollari

Hozirgi kunda agrar sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijalarini tahlil qilish va kelgusi yil uchun eng muhim chora-tadbirlarni belgilab olish dolzarb vazifa hisoblanadi. Fermerlik harakatini rivojlantirish natijasida mamlakatimizda keyingi yillarda 160 mingdan ortiq fermer xo'jaliklari shakllanib, ular bugungi kunda 10 dan ortiq yo'nalishlarda samarali faoliyat yuritmoqda. Eng quvonarlisi, 12 mingdan ziyod fermer xo'jaligi rahbarlarini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etsa, 6 mingdan ortiq fermer xo'jaligiga xotin-qizlarimiz rahbarlik qilmoqda. Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklari oxirgi ikki yilda 45 foizga ko'payib, bugungi kunda ularning soni 75 mingtaga yetdi. Faqat shuning hisobidan joylarda, uzoq-uzoq qishloqlarda yuz minglab yangi ish o'rinlari barpo etildi. Olib borilgan iqtisodiy islohotlar, fermerlik harakatining rivojlanishi natijasida joriy yilda mamlakatimiz bo'yicha 8 million 377 ming tonna g'alla yetishtirildi. 2 million 930 tonnadan ziyod paxta hosili, 12 ming 450 tonna pilla, 318 ming tonna sholi, 23 million tonna meva-sabzavot, 13 million tonna go'sht va sut mahsulotlari olishga erishdik. Bu yil birinchi marta g'alladan bo'shagan qariyb 1 million gektar maydonga sabzavot, kartoshka, poliz va dukkakli ekinlar ekildi va 5,5 million tonnadan ortiq mahsulot yetishtirildi. Qishloq xo'jaligini diversifikatsiya qilish, yer-suv resurslaridan yanada oqilona foydalanish, eksportbop mahsulotlar yetishtirish orqali dehqonlarning daromadini oshirish borasida olib borayotgan tizimli ishlarimiz ham asta-sekin o'z samarasini bermoqda. Masalan, joriy yilda 96 ming gektar hosildorligi past maydonlarda paxta va g'alla o'rniga 32 ming gektar yerda karam, turli sabzavot va ko'katlar ekildi va bu maydonlardan olingan minglab tonna mahsulotlar eksport qilindi. Shuningdek, 11 ming gektarda intensiv bog' va yangi tokzorlar, 1 ming 500 gektarda issiqxonalar barpo etildi. Bu borada Ispaniya, Polsha, Niderlandiya, Gretsiya, Rossiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Turkiya, Vetnam va Indoneziya davlatlarining ilg'or tajribasidan keng foydalanishga alohida e'tibor qaratildi. Shuningdek, mamlakatimizda birinchi marta shafran kabi noan'anaviy ekin ekish yo'lga qo'yildi, soya ekish kengaydi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 132 ming tonnasi qayta ishlanib, 100 million dollarlik tayyor mahsulot, e'tibor

bering, tayyor mahsulot eksport qilindi. 724 ming tonna ho‘l meva chetga sotildi va bu yurtimizga 856 million dollar valyuta keltirdi. Holbuki, ilgari ming-ming tonna turli shirin-shakar mevalarimiz dalada qolib, chirib ketar, isrof bo‘lardi, eng yomoni, uvol bo‘lar edi.

Pillachilikda yuqori hosil olishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan, ammo deyarli yo‘qolib borayotgan an’analar qayta tiklanmoqda. Eng muhimi, qimmatbaho xomashyo bo‘lgan ipak yetishtirishning mutlaqo yangi tizimi yo‘lga qo‘yildi. Ushbu sohada ishlarni mutlaqo yangi asosda yo‘lga qo‘yish maqsadida “O‘zbekipaksanoat” uyushmasi tashkil etildi. Bu yil mamlakatimizda birinchi marta pilladan yiliga ikki marta hosil olish tajribasi sinovdan o‘tkazildi va ijobiy natija berdi. Har bir viloyatda pilla xomashyosini qayta ishlab, tayyor mahsulot olish maqsadida to‘g‘ridan-to‘g‘ri chet el investitsiyalari jalb qilinmoqda. Natijada shu yilning o‘zida ipakni qayta ishlashga ixtisoslashgan 10 dan ortiq yangi korxona ishga tushirildi. Keyingi yillarda chorvachilik tarmog‘ini rivojlantirish dasturlari doirasida baliq, asal yetishtiriladigan, parranda, echki, qoramol boqiladigan ko‘plab xo‘jaliklar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Yana bir muhim, ammo keyingi yillarda e‘tiborimizdan chetda qolib ketgan masala haqida alohida to‘xtalib o‘tmoqchiman. Hozirgi kunda mamlakatimizda yilqichilik tarmog‘i bo‘yicha 15 ta nasl xo‘jaligi faoliyat ko‘rsatmoqda. Ularda 3 ming 150 dan ziyod zotdor ot boqilmoqda. Zotdor qorabayir otlarini ko‘paytirish va ot sportini rivojlantirish maqsadida Qashqadaryo viloyatining Yakkabog‘ tumanida yangi yilqichilik kompleksi tashkil etildi. Toshkent viloyatida va yurtimizning boshqa hududlarida ham bunday majmualar barpo etilmoqda. Umuman olganda, otabobolarimiz ardoqlab, parvarishlab kelgan, yaxshi va yomon kunlarida do‘st bilgan qorabayir otlarni millatimizning g‘ururi, desak, arziydi. Farzandlarimiz qalbida mardlik, jasurlik, ona yurtga sadoqat fazilatlarini shakllantirishda undan to‘g‘ri foydalansak, o‘ylaymanki, nur ustiga nur bo‘ladi. Oxirgi 20 yilda e‘tibordan chetda qolgan yana bir tarmoq – baliqchilik sohasini tiklash uchun “O‘zbekbaliqsanoat” uyushmasi tashkil etildi. Uning tizimiga 3 ming 600 ta baliqchilik xo‘jaligi kiritildi. Joriy yilda 580 ming gektar maydondagi tabiiy va 28 ming gektar sun‘iy

ko‘llarda 100 ming tonnadan ortiq baliq yetishtirildi. Vetnam va Xitoy texnologiyasi asosida intensiv usulda baliq yetishtirish, uni ko‘paytirish, baliq ozuqasi ishlab chiqarish borasida ushbu mamlakatlar bilan yaqin hamkorlik yo‘lga qo‘yildi. Yana bir muhim yo‘nalish – asalarichilik sohasini rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston asalarichilar uyushmasi tashkil etilib, unga asal yetishtiradigan 14 mingdan ortiq tadbirkor a‘zo bo‘lib kirdi. Bunday salmoqli yutuqlar haqida gapirganda, siz, aziz fermer va dehqonlar, barcha mirishkorlarning fidokorona mehnatingizni, shu soha rivojiga umrini, butun hayotini bag‘ishlagan insonlar nomlarini faxr bilan tilga olamiz. Ayniqsa, O‘zbekiston Qahramonlari Azim Latipov, Avaz Ergashev, Anorboy Eshmatov, Parda Ziyodov, Sarsenbay Seytnazarov, Do‘stmurod Abdullayev, Isaxon Bahromov, Siyosatxon Abdullayeva, Avaz Hosilov, Gulmat Hayitmetov, Sharifboy Rajabov, Ahmad Narzullayev, Abdumurod Bozorov, Abdurayim Homidov, Patilaxon Ergasheva, Xalchaxon Mirzayeva, To‘ra Narziyev kabi fidoyi yurtdoshlarimiz haqida har qancha gapirsa arziydi. Hozirgi kunda fermer xo‘jaliklari va umuman, qishloq xo‘jaligi sohasi davlatimiz tomonidan har tomonlama qo‘llab-quvvatlanib, ularga barcha zarur sharoit va imkoniyatlar yaratib berilmoqda.

Mamlakatimizda irrigatsiya va melioratsiya tadbirlarining barcha xarajatlari to‘liq davlat byudjeti hisobidan qoplanmoqda. Bu qishloq xo‘jaligi ekinlaridan mo‘l hosil olishda muhim omil bo‘lmoqda. Qishloq xo‘jaligi ekin maydonlarini suv bilan kafolatli ta‘minlash maqsadida har yili davlat byudjetidan 2 trillion so‘mdan ortiq, sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash uchun 400 milliard so‘mdan ziyod mablag‘ ajratilmoqda. Hosildorligi past yerlarda davlat ehtiyojlari uchun paxta yetishtiradigan fermer xo‘jaliklarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash maqsadida davlat byudjetidan mablag‘ ajratish hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Agar 2008-yilda ushbu maqsadlar uchun 80 milliard so‘m mablag‘ yo‘naltirilgan bo‘lsa, joriy yilda bu ko‘rsatkich 300 milliard so‘mni tashkil etdi. Yil davomida qilingan mashaqqatli mehnat, agrotexnik tadbirlarning o‘z muddatida va sifatli o‘tkazilishi natijasida gektaridan o‘rtacha 50 sentnerdan ziyod hosil olgan fermerlar 1 ming 121 tani, 45 sentnerlik marrani egallagan fermerlarimiz 2 ming

130 tani, 40 sentnerchilar 7 ming 208 tani tashkil etdi. Bu paxtachilik bo'yicha o'z tajriba maktabini yaratayotgan fermerlar ko'payib borayotganidan dalolat beradi. Joriy mavsumda Amudaryo, Buloqboshi, Paxtaobod, Vobkent, Buxoro, Mirishkor, Nishon, Qiziltepa, Mingbuloq, Kattaqo'rg'on, Narpay, Jarqo'rg'on, Yuqorichirchiq, Bog'ot, Xonqa, Qo'shko'pir tumanlarida paxtadan mo'l hosil olindi. Paxta yetishtirishda yuqori hosildorlikka erishgan Amudaryo tumanidagi "Amudaryo sohili" fermer xo'jaligi rahbari Islombek Matkarimov, Mirishkor tumanidagi "Turdiali bobo" fermer xo'jaligi rahbari Abduvohid Begaliyev, Peshku tumanidagi "Fattoyev" fermer xo'jaligi rahbari Yoqub Fattoyev kabi fermerlar faoliyati tahsinga sazovordir. G'allachilik bo'yicha erishgan yutuqlarimizda Beruniy, Oltinko'l, Qo'rg'ontepa, Do'stlik, Romitan, Peshku, Shahrisabz, Norin, Ishtixon, Piskent, Oltiariq, Uchko'prik, Quva tumanlari fermerlari o'rnak va namuna bo'ldilar. Eng asosiysi, bu yil yetishtirilgan g'allaning 5 million 200 ming tonnadan ortig'i fermer va dehqon xo'jaliklari hamda aholi ixtiyorida qoldirildi. Bularning barchasi dehqonlarimizning omborlari donga, ro'zg'orlari qut-barakaga to'lib borayotgani, ular o'z mehnatidan katta manfaat ko'rayotgani, xalqimiz iborasi bilan aytganda, tom ma'noda ularning kosasi oqarayotganining amaliy dalili, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz. Suv resurslari cheklangan mintaqamizda dehqonchilik qilish, mo'l va sifatli hosil olish qanchalar og'ir va mashaqqatli ekanini siz, shu sohaning mohir ustalari juda yaxshi bilasiz. Shuning uchun suvni tejaydigantexnologiyalarni joriy etishga qaratilgan tadbirlar qo'llab-quvvatlanib, buning tashabbuskori bo'lgan xo'jalik va tashkilotlarga qo'shimcha imtiyoz va preferensiyalar yaratib berilmoqda. Natijada bugungi kunda qariyb 240 ming gektar maydonda ana shunday texnologiyalar, jumladan, 28 ming gektar yerda tomchilatib sug'orish texnologiyasi joriy qilindi. 2017-yilning o'zida qishloq xo'jaligi sohasiga oid 5 ta qonun, 20 dan ortiq farmon va qaror qabul qilindi, 2 ta yangi qo'mita va 3 ta uyushma tuzildi. Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi faoliyati tubdan takomillashtirildi. Qishloq tumanlarida hokimlarning qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari lavozimi joriy qilindi. O'zbekiston Fermerlari kengashi O'zbekiston Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer

egalari kengashi sifatida qayta tashkil etildi. Endi ana shunday o'zgarishlar amaliy natija va samara berishi uchun barchamiz bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz kerak. Fermer va dehqonlarimiz qishloq xo'jaligida asosiy kuch bo'lib, nafaqat mazkur sohani, balki butun mamlakatimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimizning turmush darajasini oshirish, yurtimizni har jihatdan obod va farovon qilishda beqiyos ishlarni amalga oshirayotganini bugun faxr va g'urur bilan, minnatdorlik bilan qayd etamiz.

Qishloq xo'jaligi sohasida hali ishga solinmagan imkoniyatlar, o'z yechimini kutayotgan muammo va kamchiliklar ham juda ko'pligi barchaga yaxshi ma'lum. O'zbekistonni 2017-2021-yillarda yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida barcha sohalar qatori qishloq xo'jaligini ham modernizatsiya qilish borasida eng muhim vazifalarni aniq belgilab, ularni izchil amalga oshirib borayotganimiz sohadagi ulkan muvaffaqiyatlarga asos bo'lib xizmat qilmoqda. Bu kelgusi yilda qishloq xo'jaligining barcha tarmoqlarida yanada yuksak natijalarga erishishimiz uchun puxta zamin yaratadi.

Mamlakatimizda sug'oriladigan yerlar atigi 3 million 300 ming gektar bo'lib, uni ko'paytirishning hech iloji yo'q. Chunki bizda suv resurslari cheklangan. Aholimiz esa yildan-yilga ko'payib bormoqda.

Joylarda qat'iy nazorat yo'qligi oqibatida sug'oriladigan yerlarni fermerlar va boshqa mutasaddi rahbarlar tomonidan sotish, o'zboshimchalik bilan egallab olish va talon-taroj qilish holatlari, afsuski, davom etmoqda. Joriy yilning o'zida 20 dan ortiq tumanda, jumladan, Bo'z, Angor, Navbahor, Jomboy, Ohangaron va boshqa tumanlarda sug'oriladigan yerlar fuqarolar tomonidan o'zboshimchalik bilan egallab olingan. Bunday noxush holatlarni deyarli barcha viloyatlarda kuzatish mumkin. Hozirgi kunda mamlakatimizdagi mavjud 700 ming gektarga yaqin lalmi yerning bor-yo'g'i 300 ming gektariga g'alla va moyli ekinlar ekilmoqda. Qolgan 400 ming gektar yerdan nega foydalaniladi "Ergeodezkadastr" qo'mitasi tomonidan o'tkazilgan o'rganishlar natijasida joriy yilda 3 ming 600 ga yaqin fermer xo'jaligi g'alla va paxtani shartnomada qayd etilganiga nisbatan 19 ming gektar yerga kam ekkani aniqlangan. 833 ta fermer xo'jaligi esa 13 ming gektar

yerda paxta va g'alla yetishtirish bo'yicha shartnoma tuzgan bo'lsa-da, amalda bu ekinlarni umuman ekmagan. Unumdor yerlarni sotayotgan, noqonuniy tarzda uy-joy qurib olayotgan, shartnomada ko'zda tutilgan ekinlarni ekishdan bo'yin tovlayotgan fermerlarga nisbatan qat'iy choralar ko'radigan va qonuniy baho beradigan vaqt keldi. Ikkinchidan, sug'orish inshootlari eskirib, tarmoqlar yaroqsiz holga kelib qolgani oqibatida 830 ming gektar yerni sug'orishda qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda. Bundan tashqari, 1 million 300 ming gektar sug'oriladigan yerning meliorativ holatini yaxshilash, 18 ming kilometr kollektor va drenaj tarmoqlarini bosqichma-bosqich tozalash lozim. Shuningdek, 103 ta yirik, 720 ta o'rta va kichik suv inshootlari yangilash va ta'mirlashga muhtoj. 2017-2018-yillarda bu tadbirlar uchun davlat byudjetidan 1,5 trillion so'm, xalqaro moliya institutlarining 150 million dollar mablag'ini yo'naltirish rejalashtirilgan. Biroq shularning o'zi bilan sohadagi mavjud muammolarni to'liq hal etib bo'lmaydi. Shuning uchun Bosh vazir o'rinbosarlari Zoyir Mirzayev va Jamshid Qo'chqorov bir hafta muddatda davlat byudjetidan ushbu maqsadlar uchun qo'shimcha mablag' ajratish va xalqaro moliya institutlarining mazkur loyihalarda yanada kengroq ishtirok etishini ta'minlash bo'yicha aniq takliflar kiritishi lozim. Mamlakatimizdayer resurslaridan samarali foydalanish borasida ham ko'plab ishlarni amalga oshirish zarur. Bu boradasuv omborlari tarmog'ini kengaytirish hisobidan lalmi yerlarni o'zlashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratish kerak. 2018-2019-yillar davomida Toshkent viloyatida jami 44 million kub metr suv yig'iladigan "Parkentsoy", "Qizilsoy", "Toshtepa" suv omborlari quriladi. Shu tariqa Parkent va Ohangaron tumanlarida 5 ming gektar lalmi yerlarni o'zlashtirish imkoniyati yaratiladi. Jizzax viloyatining Forish tumanida "Karaman" suv ombori ishga tushirilgach, 20 ming gektar yer o'zlashtiriladi.

Qashqadaryo viloyatida "Guldara", "Ayaqchisoy", Samarqand viloyatida "Bulung'ur" suv omborlarini qursak, bu qo'shimcha ravishda 2 ming gektar ekin maydonlarini o'zlashtirish, 2 ming 300 gektar yerda suv ta'minotini yaxshilash imkonini beradi. Navoiy viloyatidagi "Sentobsoy", Namangan viloyatidagi "Qorasuv", "Ertikan", "Uychi"

yillarda irrigatsiya tarmoqlarini rivojlantirish va sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha davlat dasturi gamuvi bo'liq, kelgusi ikki yilda 1 ming 86 kilometru uzunlikdagi kanallar betonlashtirilib, 661 kilometrlotoklari yangidan bunyod etiladi. Shuningdek, 109 tayirik gidrotexnika inshootlari quriladi va yangi sosti stansiyalari o'rnatiladi. Ana shu tadbirlarni amalga oshirish natijasida 1 million 200 ming gektar yerning suv ta'mini yaxshilanadi. Eng asosiysi, yiliga 1 milliard 700 million kub metr suv tejiladi va 600 ming gektar yerning meliorativ holati yaxshilanadi.

Uchinchi dan, aholini sifatli go'sht, sut, tuxum va baliq mahsulotlari bilan yetarlicha ta'minlash – eng asosiy vazifalarimizdandir. Bunga erishish uchun quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratishimiz zarur. 2018-2019-yillarda bank kreditlari hisobidan 145 ta loyiha doirasida qo'shimcha 35 ming bosh zotdor qoramol boqish yo'lga qo'yiladi. Umumiy qiymati 280 milliard so'm bo'lgan 80 ta loyiha asosida qo'shimcha 3 million 200 ming bosh parranda boqishga mo'ljallangan xo'jaliklarni tashkil etish kerak. Shuning hisobidan 2018-yilda tuxum yetishtirishni 10 foizga oshirib, uning umumiy hajmini 7 milliard 800 million donaga yetkazish imkoni yuzaga keladi. Kelgusi yilda baliq yetishtirishni 150 ming tonnaga yetkazish maqsadida 215 milliard so'mlik 280 ta loyiha amalga oshiriladi, 1 ming 650 gektar sun'iy suv havzalari tashkil etiladi. 25 ta suv omborida Vetnam tajribasi asosida 13 ming tonna, 37 ming gektar sholizorda qariyb 15 ming tonna baliq yetishtirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rilmoqda. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Samarqand, Surxondaryo, Andijon va Namangan viloyatlarida Indoneziyadan keltiriladigan 380 ming dona sarmahsul baliq chavog'ini ushbu mamlakat mutaxassislari bilan hamkorlikda mahalliy iqlimga moslashtirish lozim.

To'rtinchi dan, meva-sabzavot yetishtirishni yanada ko'paytirish, unisifatli tarzda aholiga yetkazish va eksport qilish ishlari, afsuski, yetarlicha darajada emas. Bugungi kunda yurtimizda yetishtirilayotgan meva-sabzavotning atigi 15 foizi qayta ishlanib, 8 foizi eksport qilinmoqda, xolos. Ayniqsa,

Sirdaryo, Jizzax, Xorazm,
Qashqadaryova Toshkent viloyatlarida bu ko'rsatkichlar hamon pastligicha qolmoqda. Joriy yilda 860 ming tonna yoki 620 million dollarlik meva-sabzavot eksport qilinganibizning imkoniyat va salohiyatimiz gamosemas.

Rivojlangan davlatlarning tajribasidan bog'lar va tokzorlarga ishlov beradigan, sabzavot va kartoshka urug'larini ekadigan va yig'ishtirib oladigan texnikalar mavjud emas, fermer, dehqon xo'jaliklariga yoqilg'i-moylash mahsulotlari, mineral o'g'itlar, urug'lik yetkazib berish, kasallik va zararkunandalarga qarshi kurashishlar talab darajasida tashkilot sifatida ta'minlanmagan.

Beshinchidan, respublikamiz bo'yicha 445 ming gektar eng unumdor yer aholiga tomorqa sifatida berilgan. Lekin tomorqadan foydalanish talab darajasida emas. Bu yo'nalishdagi ishlarni muvofiqlashtirish va nazorat qilish tizimi mavjud emas. Shunda nazoratni ta'minlash, tomorqa egalari har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashiga qator vakolatlar berildi. Vazirlar Mahkamasi (Z. Mirzayev), O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi (B. Yusupov), Kasaba uyushmalari federatsiyasi (Q. Rafiqov), "Ergeodez kadastr" davlat qo'mitasi (A. Abdullayev), "Mahalla" jamg'armasi (Sh. Javlonov), Xotin-qizlar qo'mitasi (T. Norboyeva) va hududlardagi sektorlar rahbarlari uyma-uy yurib, aholiga tomorqadan samarali foydalanish yuzasidan zarur tavsiya va amaliy yordam berish mexanizmini ishlab chiqib, amalga oshirishi lozim. Bu ishlarni samarali yo'lga qo'yish natijasida tomorqalardan meva, sabzavot, kartoshka, ko'kat, dukkakli va boshqa mahsulotlar yetishtirish imkoniyatlari yanada kengayadi. Shuningdek, aholi tomorqalarida sitrus mevalar yetishtirishga mo'ljallangan ixcham issiqxonalar barpo qilish, yong'oq, unabi va boshqa ko'chatlar yetishtirishni tashkil etish lozim.

Oltinchidan, hozirgi paytda mamlakatimizdagi 146 ming 295 ta qishloq xo'jaligi texnikasining 38 foizi allaqachon o'z umrini o'tab bo'lgan, ya'ni butunlay eskirgan. Ayniqsa, meva va sabzavotchilikka ixtisoslashgan tumanlar bog' va tokzorlarga ishlov berish, sabzavot ekish, parvarishlash va yig'ib olishga

mo'ljallangan texnikalar bilan bor-yo'g'i 34 foiz ta'minlangan, xolos. Bu mehnat unumdorligi va hosildorlikning pasayib ketishiga sabab bo'lmoqda. Ayni paytda mamlakatimiz bo'yicha 16 ming 495 ta qishloq xo'jaligi texnikasi yetishmasligi aniqlangan. Buning oqibatida belgilangan agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirishning imkoni bo'lmayabdi va shuning uchun pirovard natijada kutilgan samaraga erishilmayabdi.

Yettinchidan, qishloq xo'jaligi sohasini rivojlantirishda ilm-fan hayot talablaridan orqada qolayotgani jiddiy muammolardan biridir. Qishloq va suv xo'jaligi vazirligiga qarashli ilmiy-tadqiqot institutlarining agrar fan va seleksiyani rivojlantirish, ilg'or agrotexnologiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, har bir hududda tuproq va iqlim sharoitiga mos ekin navlarini yaratish va joylashtirish borasidagi o'rni va rolini keskin oshirish lozim. Hozirgi kunda ana shu ilmiy muassasalarning moddiy-texnik bazasi zamonaviy tadqiqotlarni amalga oshirish imkonini bermaydi. Ilmiy-tadqiqot ishlari hamon eskicha usullarda olib borilayotgani ham haqiqat. Sohada zamonaviy ilm-fan yutuqlarini puxta o'zlashtirgan kadrlar yetishmayotganini ham tan olishimiz kerak. Ayniqsa, chorvachilik, parrandachilik va baliqchilik sohaslarida veterinar mutaxassislariga ehtiyoj katta. Chorva mollarining zotini yaxshilash, parrandalarda kasalliklarni erta aniqlash va davolash bo'yicha ilmiy izlanishlar deyarli olib borilmayapti. Yaqin vaqtgacha chorvachilik sohasida yetakchi bo'lib kelgan yurtimizda bugun zotdor mollarni faqat chetdan olib kelish bilan cheklanib qolayotganimiz e'tiborsizlik va sohaning ertangi rivojini o'ylamaslikni hech narsa bilan oqlab bo'lmaydi. Ana shu holatlarning barchasini inobatga olib, sohaga ilmiy yondashuvni tashkil etish va malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish maqsadida yurtimizda Veterinariya institutini tashkil etishning fursati keldi, deb hisoblayman. Yana bir muhim masala, ya'ni yiliga mamlakatimizda yetishtirilayotgan 12 million donadan ziyod terini yig'ish, uni chuqur qayta ishlash, ayniqsa, dunyoga mashhur qorako'l teridan yuqori sifatli, raqobatdosh mahsulot tayyorlash bo'yicha ishlarimiz ham talab darajasida emas. Ma'lumki, biz yaqinda rivojlangan davlatlar tajribasidan kelib chiqib, hayotimizga yangi innovatsion texnologiyalar joriy etish ko'lamini

yanada kengaytirish maqsadida Innovatsiyalarni rivojlantirish vazirligini tashkil etdik. Ushbu vazirlik bu borada alohida dastur ishlab chiqib, qishloq xo'jaligi sohasiga ilg'or texnologiyalarni joriy etish chora-tadbirlarini amalga oshirishi g'oyat muhim masaladir.

Don va dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqot institutining G'allaorol ilmiy-tajriba stansiyasi negizida Lalmikor dehqonchilik institutini tashkil etishni zamonning o'zi taqozo etmoqda. Bunday ilmiy-tadqiqot markazi lalmi yerlardan samarali foydalanish bo'yicha zamonaviy ilmiy izlanishlarni yanada kengaytirish imkonini yaratadi.

Mamlakatimizda parrandachilikni rivojlantirish, jumladan, kurka, bedana, g'oz, o'rdak va tuyaqush parvarishlashni ilmiy asosda yo'lga qo'yish maqsadida Parrandachilik ilmiy markazini tashkil etish zarur deb hisoblash mumkin. Xalqimizni eng ko'p iste'mol qilinadigan oziq-ovqat turlaridan biri bo'lgankartoshkabilan to'la ta'minlash uchun bizga yiliga o'rtacha 50 ming tonna sifatli kartoshka urug'i kerak bo'ladi. Buning uchun Gollandiya, Polsha, Rossiya kabi davlatlar bilan hamkorlikda zamonaviy laboratoriya uskunalariga ega bo'lganmahalliy urug'chilik markazi va maxsus korxonalar tashkil etilishi kerak.

Sakkizinchidan, fermer xo'jaliklarida har qarich yerdan unumli foydalanish, daromad hajmini oshirishmasalasiga ham alohida ahamiyat qaratishimiz zarur. Shu maqsadda mavjud 2 million 626 ming gektar maydonning umumiy uzunligi 385 ming kilometr bo'lgan chekka qismlarida sabzavot va poliz ekinlari ekishni yo'lga qo'yish orqali 415 ming tonna qo'shimcha mahsulot yetishtirishga erishish mumkin. Oddiy hisob-kitoblar shuni ko'rsatmoqdaki, hozirgi vaqtda har bir fermer xo'jaligi dalasida bir boshdan, jami 14 ming sog'in sigir, 21 ming 125 fermer xo'jaligining har birida 50 boshdan, jami 1 million 57 ming parranda, 66 ming fermer xo'jaligining dala chetlarida 329 ming quti asalari boqish hisobidan 7 ming 200 tonna asal yetishtirishni yo'lga qo'yish mumkin. Yuzaki qaraganda, bu oddiy gapga o'xshaydi. Agar masalaga jiddiy yondashib, har bir raqam zamiridagi ma'noni teran anglab yetsak, bular dehqonlarimiz uchun qo'shimcha daromad manbai ekani ma'lum bo'ladi. Kelgusi yilda alohida e'tibor qaratilishi lozim

boʻlgan yana bir muhim yoʻnalish – bu sugʻorish va kollektor-drenaj tarmoqlari boʻylarida, yirik gidrotexnik inshootlar atrofidagi maydonlar va dala chetlarida oddiy va arzon usullarda 30 mingdan ziyod xonalar tashkil etishdan iborat.

Toʻqqizinchidan, paxta va gʻalla ekilayotgan past rentabelli maydonlarni yildan-yilga qisqartirib, ularning oʻrniga intensiv bogʻlar, yongʻoqzor va tokzorlar barpo etish, shuningdek, serdarmad boʻlgan soya, qalampir va koʻkatlar ekish rejalashtirilgan. Mamlakatimizda raps yetishtirishni kengaytirishga ham alohida eʼtibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, yengil sanoat korxonalarini sifatli tola bilan taʼminlash haqida ham jiddiy oʻylashimiz kerak. 2018-yilda mamlakatimizda yetishtirilayotgan 1 million 200 ming tonna paxta tolasini yurtimizda toʻliq qayta ishlab, xorijga faqat tayyor mahsulotlar eksport qilishni yoʻlga qoʻyishimiz zarur. Navoiy viloyatining Qiziltepa tumanida amalda qoʻllangan – paxtani yetishtirishdan tortib, undan tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha boʻlgan bosqichlarni oʻz ichiga qamrab olgan klaster usuliga biz Oʻzbekiston paxtachiligining kelajagi sifatida qaramoqdamiz. Bu istiqbolli tajribani keng yoyish maqsadida mamlakatimizdagi oʻttizdan ziyod yengil sanoat korxonasiga toʻrt yuz ming gektardan koʻproq paxta maydonlari birlashtirib beriladi.

Qolgan paxta maydonlarida hosildorlikni oshirish va yerdan samarali foydalanish maqsadida chigitni “qoʻshqator” va “oltmishlik” sxemasi asosida ekishni yoʻlga qoʻyish va samarasiz boʻlgan “toʻqsonlik” sxemadan bosqichma-bosqich voz kechish kerak. Shuningdek, xitoylik olimlar bilan hamkorlikda Fargʻona, Andijon va Namangan viloyatlarida gʻoʻza parvarishini zamonaviy texnologiyalar asosida olib borishimiz zarur. Surxondaryo, Samarqand va boshqa viloyatlarda tomchilatib sugʻorish texnologiyalarini keng joriy etishimiz lozim.

Bugungi kunda oldimizda turgan eng asosiy muammolardan biri bu – respublikamiz qishloq xoʻjaligida ilm va amaliyotning bir-biridan uzoqlashgani, aksariyat hollarda uzilib qolganidir.

Qishloq va suv xoʻjaligi vazirligi huzuridagi Oʻzbekiston qishloq xoʻjaligi ilmiy-ishlab chiqarish markazi (sobiq Oʻzbekiston qishloq xoʻjaligi fanlari

akademiyasi) tarkibida ayni paytda 11 ta ilmiy- tadqiqot instituti va 44 ta ilmiy-tajriba stansiyasi mavjud. Bundan tashqari, bevosita Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tizimida 4 ta oliy ta'lim muassasasi va ularning 3 ta filiali, shuningdek, 132 ta kasb-hunar kolleji faoliyat ko'rsatmoqda. Lekin Toshkent davlat agrar universiteti, Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti, Andijon va Samarqand qishloq xo'jaligi institutlarining ilmiy salohiyati va kadrlar tayyorlashdagi mavqei yildan-yilga pasayib bormoqda. Bugungi davr shuni taqozo etmoqdaki, oliy ta'lim muassasasi va kollejlardagi o'quv dasturlari ishlab chiqarish, firma va kompaniyalarning aniq talab va buyurtmalari asosida tuzilishi va raqobatdosh kadrlarni tayyorlab berishi kerak.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, qishloq xo'jaligi eng muhim soha bo'lishiga qaramay, ko'plab muammo va kamchiliklarga ega, bu muammolar bartaraf etilsa, iqtisodiyotimizning porloq istiqboliga shubha qilmasak ham bo'ladi.

Xulosa va takliflar

Qishloq xo'jaligi - moddiy ishlab chiqarishning asosiy tarmoqlaridan biri. Dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari olish uchun ekinlar ekish va chorva mollari ko'paytirish bilan shug'ullanadi, aholini oziq-ovqat mahsulotlari va xalq xo'jaligining bir qancha tarmoqlarini xom ashyo bilan ta'minlaydi. Qishloq xo'jaligi o'simlik va hayvon mahsulotlarini dastlabki qayta ishlashning turli tarmoqlarini ham o'z ichiga oladi. Moddiy ishlab chiqarishning boshqa jami sohalaridan farq qilgan holda Qishloq xo'jaligi juda katta maydonlarda va hududiy xilma xil sharoitlarda olib boriladi. Unda yer (asosiy ishlab chiqarish vositasi), yorug'lik, issiqlik, suv va tirik organizmlar — o'simlik va hayvonlardan foydalaniladi. Qishloq xo'jaligining ishlab chiqarish davri ish davri bilan mos tushmaydi. Qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlari — dehqonchilik va chorvachilik. Ular ham o'z navbatida bir qadar kichikroq tarmoqlarga bo'linadi (dehqonchilikda — dalachilik, sabzavotchilik, polizchilik, bog'dorchilik, o'rmon xo'jaligi va boshqa; chorvachilikda — qoramolchilik, qo'ychilik, yilqichilik, cho'chqachilik, parrandachilik, asalarichilik, pillachilik va boshqalar); O'z navbatida, dehqonchilik va chorvachilik tarmoklari ekiladigan ekinlar (g'allachilik, sholikorlik, paxtachilik) va chorva mollari turlari (qoramol, qo'y, ot, tuya) bo'yicha guruhlanadi.

Qishloq xo'jaligi- aholi uchun oziq-ovqat mahsulotlarini etqazib beruvchi asosiy manbadir. Ayni vaqtda u keng istemol mahsulotlari ishlab chiqaruvchi sanoatning bir qancha tarmoqlari uchun xom-ashyo yetkazib beradi. Masalan, qishloq xo'jalik xom-ashyosining ulushi (qiymat jixatidan) ip-gazlama sanoatida barcha moddiy xarajatlarning 60 foizini, qandolat sanoatida salkam 70 foizni, yog' va sut sanoatida qariyb 80 foizni tashkil qiladi. Bularning hammasi shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishni ko'ngildagiday sur'atlar bilan rivojlanmasa, xalq turmush darajasini oshirishning hech qanday eng yaxshi programmasini ham ro'yobga chiqarib bo'lmaydi. Qishloq xo'jaligining ahamiyati

yana shu bilan belgilanadiki, xalq xo'jaligida band bo'lgan xodimlarning 27 foizi shu sohada mehnat qiladi. Qishloq xo'jaligida mamlakat milliy daromadining taxminan uchdan bir qismi yaratiladi. Shu sababli mamlakat butun iqtisodiyotining o'sish sur'atlari, mehnatkashlar farovonligini oshirish ko'p jihatdan qishloq xo'jaligining rivojlanish darajasiga bog'liqdir. Shu bilan birga sotsial-siyosiy jihatni ham xisobga olish muhimdir. Qishloq xo'jaligini yuksaltirish ishchilar sinfi bilan dehqonlar ittifoqini mustahkamlashning eng muhim shartidir.

Mamlakatda investitsion munosabatlarni amalga oshirish va uning huquqiy tizmini tashkil etuvchi muayyan huquqiy asoslar yaratilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi, "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi yangi tahrirda, "Chet ellik investorlar huquqlarning kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi.

Bu qonunlarda investitsion munosabatlarga taalluqli barcha jarayonlarga va tushunchalarga aniqliklar kiritilgan. Investitsiya faoliyatining sub'ektlari va ob'ektlari, investitsion faoliyatning davlat tomonidan tartibga solinish masalalari, xorijiy investorlarning huquq va burchlari, mol-mulk kafolatlari va imtiyozlari kabilar aniq belgilab berilgan.

Biroq, bu kabi mamlakatda investitsion faoliyatni rag'batlantiruvchi qonuniy-xuquqiy bazaning mavjudligi bozor munosabatlarining rivojlanganligini belgilamaydi. Bugungi kunda mamlakatda investitsion muhitni tubdan yaxshilash chora-tadbirlarini amalga oshirmoq zarur. Davlat mazkur qonunlar doirasida investitsion faoliyatning turli sub'ektlari o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solib turadi. Boshqacha qilib aytganda, bu tartibning qanday o'rnatilganligiga qarab u yoki bu mamlakat xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun qanday huquqiy muhit yaratilganligini aniqlab olish mumkin.

O'zbekistonda investitsion munosabatlarni tartibga solishining yaratilgan qonuniy asoslari mos ravishda tadbirkorlik to'g'risida O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik to'g'risida"gi Qonun va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlar bilan to'ldirilib borilmoqda.

Investitsiya faoliyatini yo'lga qo'yishda har bir mulk egasi, birinchi navbatda o'z manfaatini ko'zlab yagona maqsadga, ya'ni foyda olish va samaraga erishishni rejalashtiradi.

Investitsiya faoliyatini tashkil etishda har bir mulk egasi ishbilarmonlikni, tadbirkorlikni mohiyatini chuqur anglagan holda ish yuritishi lozim. Investitsiya faoliyati bilan shug'ullanuvchi mulk egasi tez o'zgaruvchan bozor iqtisodiyoti va uning ko'pqirrali munosabatlarini har tomonlama anglay bilishi lozim. Investitsiya faoliyatini yuritishda iqtisodiy axborotga tayangan soha bir butun iqtisodiyot va mamlakat miqyosida marketing bililariga ega bo'lishi alohida ahamiyatga ega. Chunki barqarorlashmagan iqtisodiyotda investor pul muomalasi, moliya kredit va banklar, soliq siyosati mohiyatini chuqur bilmay turib, investitsiya faoliyatini tashkil etish tavakkalchilik bilan bog'liq bo'lib, qisqa davr ichidagi inqirozga uchrashi mumkin. Bozor munosabatlari rivojlangan etuk jamiyatda investitsiya faoliyati quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi:

- fuqarolar, davlatga qarashli bo'lmagan korxonalar, xo'jalik assotsiatsiyalari, jamoa va o'rtoqlik xo'jaliklari hamda jamoa mulkchiligi asosida tashkil etilgan tashkilotlar, nodavlat korxonalari va muassasalari tomonidan;

- davlatni ma'muriy va boshqaruv bo'linmalari, tashkilotlari hamda davlat korxonalari va muassasalari tomonidan;

- chet el fuqarolari, xususiy firmalar, assotsiatsiyalar, kompaniyalar va huquqiy shaxslari hamda boshqa xorijiy davlatlar va halqaro moliya – kredit muassasalari tomonidan;

- qo'shma korxona ko'rinishida mahalliy va chet el fuqarolari, huquqiy shaxslar va davlatlar bilan hamkorlikda.

Bozor sharoitida investitsiya faoliyatini kengaytirish va rivojlantirish jismoniy, huquqiy shaxslarni va davlatni, foyda olish maqsadida tadbirkorlik, ishbilarmonlik va boshqa faoliyatlarini qaytadan tiklashga qaratilgan. Bu boradagi asosiy maqsad investitsiya faoliyatini tashkil etib iqtisodiyotni inqirozdan olib chiqish, uni barqarorlashtirish, dunyo bozoriga kirib borish, jahon xo'jalik aloqalarini mustahkamlash va aholi turmush darajasini yaxshilashdir.

Bozor iqtisodiyotida investitsiya faoliyatini moliyalashtirish investorlar tomonidan moliyaviy resurslarni jalb qilish yo'li bilan kreditlar evaziga, muomalaga, qonunchilikda belgilangan holda, qimmatli qog'ozlar va zayomlar chiqarish hisobiga olib boriladi. Davlat mulkini xususiylashtirish tufayli mamlakat miqyosidagi manbalar hisobiga, turli mulk egalarining mablag'lari, yangidan tashkil etilayotgan fondlarni ulushi, chet el investitsiyalari orqali olib boriladi. Albatta, bu borada har bir mamlakatning investitsiya siyosati hal qiluvchi rolni o'ynaydi. Investitsiya manbalarini tashkil etishda mamlakat iqtisodiyotini barqarorligi, milliy valyuta birligini konvertatsiyalanishi, tashqi iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi, aholi ehtiyojini ishlab chiqarish hisobiga qondirilishi va boshqalar muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

I. Normativ-xuquqiy xujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1.1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.:O'zbekiston, 2014 y.

1.2. O'zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik to'g'risida”gi Qonuni. 1991 y. 15 fevral

1.3. O'zbekiston Respublikasining Qonuni “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida” “Xalq so'zi” gazetasi, 03.05.2015 y.

1.4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston iqtisodiyotida xususiy sektorning ulushi va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risi”dagi Farmoni. 2014 y. 24 yanvar.

1.5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mikrofirmalar va kichik korxonalarni rivojlantirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risi”dagi Farmoni. 2005 yil 20 iyun.

1.6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Farmoni .2016 yil 24 noyabr

1.7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotini yanada erkinlashtirish sohasidagi ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirishni jadallashtirish chora tadbirlari to'g'risida»gi Qarori 2005 y. 14 iyun.

1.8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-

tadbirlar to'g'risida»gi 2005 yil 11-apreldagi Farmoni.–SBX gazetasi.–2005.– №16–B.1-2.

1.9. Investitsiya faoliyati to'g'risida O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 24 dekabr qonuni - O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999 yil, 1-son.

1.10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasining 2016 yilgi investitsiya dasturi to'g'risi”dagi Qarori. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2009 y., 10-son, 403-modda.

1.11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 24 iyuldagi PQ-927 – sonli «Xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb qilish hamda o'zlashtirish jarayonini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi Qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent, 2008. - №29-30. – B. 21-23.

1.12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 28 iyuldagi PQ-1166-sonli “Tijorat banklarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltirilgan uzoq muddatli kreditlari ulushini ko'paytirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent, 2009. - №30-31. – B. 4-7.

1.13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Aholi sonining tanlama statistik kuzatuvini tayyorlash va o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori 2011 y. 14 mart

1.14.“Қишлоқ хўжалиги соҳасидаги ислохотларни янада чуқурлаштириш, қишлоқ хўжалик маҳсулотларини, айниқса саноат усулида чуқур қайта ишлашни ташкил этиш, ишлаб чиқарилган маҳсулотларни экспортини кенгайтириш бўйича лойиҳаларни амалга ошириш ва мониторинг қилиш” мавзусидаги O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mapyзasi – Toshkent 2017 y.

1.15. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009.

1.16. Karimov I.A. Mamlakatimizda demoraktik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi- T.: O'zbekiston, 2010.

1.17. "O'zbekiston Respublikasi Qonuni "Investitsiyafaoliyatito'g'risida"gi. 1998 y.24 dekabrg', 2-modda/NORMA.

1.18. 2017- yilda ish o'rni tashkil qilish va aholi bandligini ta'minlash davlat Dasturi

II. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to'plamlar

2.1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2016. -56 6.

2.2. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. - Toshkent: «O'zbekiston», 2017. - 104 b.

2.3.Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va halqfarovonligining garovi. - Toshkent: «O'zbekiston», NMIU, 2017. - 48 b.

2.4.Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: «O'zbekiston», NMIU, 2017. - 488 b.

2.5. Karimov I.A.Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi.// Xalq so'zi, 2011 yil 22 yanvar.

2.6. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirish – taraqqiyotimizning muhim omilidir. // Xalq so'zi, 2010 yil, 8 dekabr.

2.7. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. // Xalq so'zi, 2010 yil 13 noyabr.

2.8. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari / I.A.Karimov. – T: O‘zbekiston, 2009. – 56 b.

2.9. Karimov I.A. Inson manfaatlari ustuvorligini ta’minlash-barcha islohot va o‘zgarishlarimizning bosh maqsadidir“. // Xalq so‘zi, 2008 yil 9 fevral

2.10. Karimov I.A. O‘zbekiston –bozor munosabatlariga o‘tishining o‘ziga xos yo‘li.-T.: O‘zbekiston, 1993.-128 b.

2.11.Karimov I.A. Iqtisodiy islohot: mas’uliyatli bosqich.-T.: O‘zbekiston,

2.12. Bogatirev A.G. Investitsionnoe pravo. M.: Rossiyskoe pravo, 2008.-272 s.Sharp U., Aleksander G., Beyli Dj. Investitsii: Per. angl. - M.INFRA-M, 2007. - s.28.

2.13. Kovalev V.V. Metodn otsenki investitsionnix proektov.-- M.: Finansi i statistika, 2008. – 144s.

2.14. Lukinov V.A. Problemn stabilizatsii i razvitiya investitsionno-stroitelg’noy sfern.-- M.: 1998. — 228s.

2.15. Thijs L.J. Broekhuizen, Tom Bakker, Theo J.B.M. Postma. “Bussines Horizons”, Implementing new business models: What challenges lie ahead?. Pages 555-566.

2.16. www.sciencedirect.com/science/article/pii/S000768131830034X ,
<https://doi.org/10.1016/j.bushor.2018.03.003>

Investitsii: ucheb. /A.Yu. Andrianov, SV. Valdaytsev, P.V. Vorobg’ev i dr.— 2-e izd., pererab. i dop. —

M.:TK Velbi, Izd-vo Prospekt, 2008. — s58.

2.17. Sinitsin O. Investitsionniy analiz. Teoriya vibora // Investitsii v Rossii. № 1-2, 2007

2.18. Shapirov.D. I.Upravlenieproektami. — SPb.: "DvaTri", 2006. - 17 s.

Jo’rayevA. «Qishloqxo’jaligidagi isiohotlar» // «Muloqot» jurnali 2004y. №2-son.4-bet.

2.19. Alexandrina Maria Pauceanu PhD. "Entrepreneurship in the Gulf Cooperation Council" Guidelines for Starting and Managing Businesses.

www.sciencedirect.com/science/book/9780128112885.,

<https://doi.org/10.1016/B978-0-12-811288-5.00001-4>

2.20. "Zilol" fermer xo'jaligining yillik hisoboti

III. Foydalanilgan boshqa adabiyotlar.

3.1. Respublikada mehnat migratsiyasi jarayonlarining hozirgi holati. Moliya ilmiy jurnali. 2012 yil 4-son, 49-bet

3.2. Abdurahmanov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti (nazariya va amaliyot) Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik Toshkent-"Mehnat"-2004.

3.3. Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh. X., Muminov N. G. Xorijiy investitsiyalar. T.: Moliya – 2010. 328 b.

3.4. Bekmuradov A., Sattorov S., To'raev J., Soliev Q., Ro'ziev S. Kichik biznes va tadbirkorlik rivoji –davr talabi. –T.: TDIU, 2005.

3.5. Salimov V.T. va boshqalar. "Fermer va dehqon xo'jaliklari iqtisodi".– T.: "TDIU", 2006, 124 b.

3.6. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik: tashkil etish, rejalashtirish, boshqarish. O'quv qo'llanma, mualliflar jamoasi. T.: «Fan va texnologiyalar» - 2005.

3.7. Sindarov K., Jumanazarov I. Tadbirkorlik sub'ektlarini tekshirishning huquqiy asoslari. –T.: "Yangi asr avlodi", 2006.

3.8. Strategiya zaryatosti. Otv.red. L.S.Chijova. -M. Ekonomika, 2009.

3.9. Tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasining normativ hujjatlari. -T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2003.

3.10. Egamberdiev E., Xo'jaqulov G'. Kichik biznes va tadbirkorlik: O'quv qo'llanma. -T.: "Ma'naviyat", 2003.

3.11. Umurzoqov U.P., Toshboev A.J., Toshboev A.A. Fermer xo'jaligi iqtisodiyoti. T.: "Iqtisod- moliya" 2007. – 226 b.

3.12. O'murzoqov O'.P. va b. Kishlok xo'jaligi iqtisodiyoti. T.: "Iqtisod- moliya", 2008.-87-89 b.

3.13. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

3.14. "Zilol" fermer xo'jaligi ma'lumotlari

3.15. Internet saytlari.

- www.gov.uz

- www.press-service.uz

- www.stat.uz

- www.tfi.uz

- www.lex.uz

- www.webeconomy.ru